

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUSTA`LIM VAZIRLIGI**

**FARG`ONA DAVLATUNIVERSITETI
FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI**

**“5110700-INFORMATIKA O`QITISH METODIKASI
TA`LIM YO`NALISHI”**

13.05 guruh talabasi Mustafoulova Maftunaning

**“Wordpress dasturida Farg`ona shaxar 5-umumiy o`rta
ta`lim maktabining Web saytini yaratish”**

mavzusidagi

BITIRUV

MALAKAVIYISHI

ILMIY RAXBARI: Axborot texnologiyalari
kafedrasio`qituvchisi: *V Jo`rayev.*

FARG`ONA – 2017.

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017 yil __-______ dagi yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

I. Haydarov

Taqrizchilar:

1 Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti

Informatika o'qitish metodikasi

kafedrasi katta o'qituvchisi:



2. Farg'ona Davlat Universiteti

Axborot texnologiyalari

kafedrasi o'qituvchisi:

V. Jo'rayev

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. INTERNET TARMOG'I VA WEB TEXNOLOGIYALARI	8
1.1-§. Internet tarmog'i haqida umumiy ma'lumot.....	8
1.2-§. HTML gipermurojaatlar tili haqida.....	9
1.3-§. WEB sahifalar va WEB brauzerlar.....	10
1.4-§. CSS (Cascading Style Sheets) haqida.....	12
II BOB. O'QUV MUASSASASI UCHUN YARATILGAN SAYTLARDAN O'QUV JARAYONIDA FOYDALANISH	20
2.1. O'quv muassasasi uchun yaratilgan saytlarning ahamiyati.....	20
2.2. Informatika amaliy va nazariy darslarida saytlardan foydalanish.....	26
2.3. Mustaqil ishlarni bajarishda web saytlarning imkoniyatlari.....	33
III BOB. LOYIXALASH QISMI	38
3.1 Wordpress dasturida umumta'lim maktablarining web saytini yaratish jarayoni.....	38
XULOSA	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	84

KIRISH

“Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish o’zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.”

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev

Mamlakat birinchi Prezidenti Islom Karimov 2001-yil may oyida Oliy Majlisning V sessiyasida so’zlagan nutqida kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini ishlab chiqarishga, maktablar va oliy o’quv yurtlari dasturlariga, odamlarning kundalik turmushiga joriy etish bo’yicha O’zbekistonning yuksak darajalarga erishishi yuzasidan aniq vazifalarni qo’ydi.

Jamiyatni kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo’yicha vazifalarni hal etish uchun 2002-yil 30-mayda O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug’anievich Karimovning “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to’g’risida” gi farmoni qabul qilindi. Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi axborotlashtirishning milliy tizimlari barpo etilishini, iqtisodiyotga va jamiyatning har bir a’zosi hayotiga kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari ommaviy joriy etilishi uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydi, jahon bozorida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o’zgarishlar, yangilanishlar, kutilgan va kutilmagan voqea-hodisalar sodir bo’lmoqda. Har bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmoqda. Biz uyda, ishda va jamoat joylarida, eng ko’prog’i ta’lim jarayonida axborot oqimidan xabardor bo’lish, yangi bilimlar va izlanishlar natijalaridan xabardor bo’lish ehtiyoji vujudga keladi. Zamon shuni taqozo qilayaptiki, insoniyat axborot oqimidan uzilgan holda normal faoliyat yurita olmaydi. Zamonaviy taraqqiyot bosqichida hayotni anglash, uni o’rganish, tahlil qilish va tadbiq qilish axborotlarni yig’ish va o’zlashtirish, saralash va qayta ishlash orqali kechadi.

Insonning bilimlilik darajasi, egallagan ma'lumoti ham ma'lum davr mobaynida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun, zamonaviy bilimlar sari yangicha yo'llarni o'rganish, ta'lim olish jarayonini takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish - bugungi kunning xaqli ravishdagi talabiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari ham pedagog xodimlar, talaba va o'quvchilar zimmasiga ana shu ma'suliyatni yuklaydi. Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23 maydagi «2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish to'g'risida»gi, «Internetning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, shuningdek, 2002-yil 30-maydagi «Kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish to'g'risida»gi qarorlari ta'lim sohasiga yangidan-yangi kuchlarni jalb qildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan shuni ta'kidlash mumkinki, bizning yurtimizda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda ta'lim tizimi, fanlarni o'qitish, xususan, informatika fanini o'qitishda o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar va ulardan foydalanish talabalarni bilim darajalarini oshirishga imkon yaratadi.

Bizning bitiruv malakaviy ishimizda ham aynan shu soha - axborot kommunikatsion texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish, xususan web-saytlar, o'quv muassasalari faoliyatida ta'lim muassasasining saytini tutgan o'rni, o'quv-muassasalari uchun yaratilgan saytlarning tarkibiy tuzilishi hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish to'g'risida fikr yuritilgan.

Ilmiy yangiligi:

- o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning didaktik aspektlarining nazariy tahlil qilinganligi;
- o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan informatika fanining o'qitishning nazariy darslarida foydalanish metodikasini ishlab chiqilganligi;

- o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan informatika fanining o‘qitishning amaliy darslarida va mustaqil ishlarni bajarishda foydalanish metodikasini ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Agarda o‘quv jarayonida darslarni o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanib tashkil etilsa, talabalarning fan hamda internet haqidagi bilimlari tezda shakllanadi, shuningdek ta’limni boshqaruv ham takomillashadi, talabalarning ko‘nikma va malakalari oshadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi shundan iboratki, informatika fanining o‘qitishda o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar va ulardan foydalanishni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar holatini o‘rganish, tahlil qilish va ulardan informatika darslarida foydalanishning didaktik aspektlarini asoslash;
- o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan o‘quv jarayonida foydalanishni ishlab chiqish;
- o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanib talabalar bilimni nazorat qilish va baholashda oddiy hamda tarmoqqa mo‘ljallangan test dasturlaridan foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti - bu o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar mazmuni, talabalarning internet haqidagi bilim, malaka va ko‘nikmalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti – o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida ta’limni tashkil etishning didaktik jihatlari va ulardan foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishini kirish qismida – Respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda o‘quv muassasalari uchun yaratilgan

saytlar holatini o'rganish, tahlil qilish va ulardan informatika darslarida foydalanishning didaktik aspektlarini asoslash;

- o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish;

- informatika fanining o'qitishning nazariy, amaliy darslarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanib o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish;

- o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanib talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda oddiy hamda tarmoqqa mo'ljallangan test dasturlaridan foydalanish kabi umumiy ma'lumot berilgan.

I bobda – internet tarmog'i va web texnologiyalar haqida umumiy tushunchalar ya'ni internet tarmog'i, HTML gipermurojaat tili haqida hamda CSS (Cascading Style Sheets) kabi web texnologiyalar haqida ma'lumot berildi.

II bobda – o'quv muassasasi uchun yaratilgan saytlardan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati, informatika amaliy va nazariy darslarida saytlardan foydalanish hamda mustaqil ishlarni bajarishda web saytlarning imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

III bobda esa – wordpress dasturida Farg'ona shaxar 5-umumta'lim maktabining web saytini yaratish jarayoni eng yoritilgan bo'lib, web sayt yaratish bosqichlari, ushbu web saytga bog'langan elektron pochta tizimi, web sayt stillini o'zgartirish, yangi saxifa yaratish, hamda web saytni ma'lumotlar bilan to'ldirish jarayonlariga to'xtalangan.

Ishning oxirida xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va elektron manzillar ro'yxati berilgan.

I BOB. INTERNET TARMOG'I VA WEB TEXNOLOGIYALARI.

1.1-§. Internet tarmog'i haqida umumiy ma'lumot.

Internet tushunchasi. Internet - bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya'ni "International Network" – "xalqaro tarmoq" va "Interconnected networks" – "tarmoqlararo" degan ma'noni anglatadi.

Internet tarmog'ining asosiy yacheykalari (qismlari) bu shaxsiy kompyuterlar va ularni o'zaro bog'lovchi lokal tarmoqlardir. Internet tarmog'i – bu global tarmoq vakili hisoblanadi.

Internet alohida kompyuterlar o'rtasida aloqa o'rnatibgina qolmay, balki kompyuterlar guruhini o'zaro birlashtirish imkonini ham beradi.

Internet tarmog'ining tuzilishi:

- Internet tarmog'ining texnik ta'minoti har xil turdagi kompyuterlar, aloqa kanallari hamda tarmoqning texnik vositalari majmuidan tashkil topgan.
- Internet tarmog'ining dasturiy ta'minoti tarmoqqa ulangan xilma-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida ishlashni ta'minlovchi dasturlar.
- Internet tarmog'ining axborot ta'minoti Internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjatlar, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir, WEB sayt va hokazo ko'rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan.

Internet tarmog'i vazifasi va undan foydalanish maqsadlari:

- Internet tarmog'ining vazifasi – internet tarmog'i abonetlariga WEB hujjatlarni o'qish, elektron pochta, fayl uzatish va qabul qilish, muloqotda bo'lish, tarmoqda hujjatlarni saqlash va ular bilan ishlash xizmatini ko'rsatish.
- Internet tarmog'idan axborotlarni almashish, masofaviy ta'lim olish, konferensiyalar o'tkazish, WEB saytlarni tashkil etish, elektron pochta joriy qilish, muloqot o'rnatish va shu kabi maqsadlarida foydalaniladi.

1.2-§. HTML gipermurojaatlar tili haqida.

HTML asoslari. HTML (Hyper Text Markup Language – giper matnli muloqotlar tili) gipermatnlar tili WEB brauzerlar ekraniga ma'lumotlarni standart kodlar orqali chop etish imkoniyatini beradi. HTML dan foydalanib o'zida taxrirlangan matn, tasvir, multimediya elementlarini aks ettirgan WEB sahifalarni yaratish mumkin.

HTML WWW sistemasi uchun hujjat tayyorlashda ishlatiladi. HTML tili Pascal, C++, Java va boshqa dasturlash tillari kabi to'g'ri ma'nodagi dasturlash tili hisoblanmaydi. HTML yordamida operatsion tizimlarda ishlaydigan to'laqonli dastur yozib bo'lmaydi (html da for, if, while kabi buyruqlar yo'q). HTML bu Internet tarmog'idagi WEB – serverida joylashtirilgan hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradigan sahifalar yaratishga mo'ljallangan gipermatnning belgilash tili hisoblanadi. HTML ni WEB brauzerlarga matn yoki tasvirlarni qay holatda chop etish ko'rsatmalar to'plami deyish ham mumkin.

Butunjahon o'rgimchak to'lining asosiy va HTML ning tarkibiy qismini gipermatnlar va gipermurojaatlar tashkil etadi. Maxsus komandalar yordamida matnning ma'lum qismi shunday ajratiladiki, natijada o'sha matn ustiga sichqon tugmasi bosilsa boshqa matn yoki sahifa ochiladi. Bundan tashqari multimediya vositalarining ishlab ketishi yoki bo'lmasa, ma'lumotni diskda saqlash taklifi ham berilishi mumkin.

Gipermatn yoki gipermurojaat biror bir tasvirga ham qo'yilishi mumkinki uning ustiga bosilganda ham yuqorida aytilgan holatlar ro'y berishi mumkin.

Har bir WEB sahifa o'zida bir nechta gipermatn yoki gipermurojaatlarni mujassam etishi mumkin.

Internet xizmatlarining ko'pchiligiga dostup (ruxsat, yo'l) adresatsiya sxemasi (URL) yordamida qiziqtirilgan ixtiyoriy hujjatni topish imkoniyatini beradi. Har bir tur boshqasidan farq qiluvchi o'zining format adresiga ega.

Masalan, mening adresimga xat yozish uchun foydalanuvchi o'zining pochtasining jo'natish adresiga yozishi kerak bo'ladi. Boshqa tomondan Intel

kompaniyasining WEB sahifasini yuklash uchun WEB brauzerning adreslar paneliga yozishi kerak.

HTML tilining xususiyatlaridan biri – bu uning kodlarini yozish uchun alohida dasturiy muhit zarur emas. Kodlar ixtiyoriy matn muxarririda yozilishi mumkin va HTML hujjat tayyor bo'lgach uni (dastlabki holatda *.txt kengaytmali bo'ladi) *.html (yoki htm) kengaytmali fayl ko'rinishida saqlash kifoya. Ushbu HTML hujjatni istalgan WEB brauzer yordamida ko'rishimiz mumkin.

Windows muhitida HTML hujjat kodlarini yozish uchun quyidagi matn muxarrirlari: Bloknot, Akelpad, Notepad++, Wordpad kabilardan foydalanish mumkin,. Ko'rsatilgan hamma matn muharrirlari yordamida HTML kodlarni yozishda qo'llash mumkin.

Ko'pgina matn muharrirlarida HTML kodlarni hatto programmalashtirish tillarida kodlarni yozish juda qulay. Ba'zilar avtomatik ravishda operatorlar, funktsiyalarni tanish va ularni har xil ranglarda tasvirlash imkoniyatiga ega. Ba'zi matn muxarrirlarida HTML hujjatni WEB brauzerda sinab ko'rish tugmasi mavjud.

1.3-§. WEB sahifalar va WEB brauzerlar.

WEB sahifalar. WEB sahifa biror voqelik, hodisa yoki ob'ekt to'g'risida ma'lumotlarni o'zida jamlagan ma'lumotlar faylidir.

WEB sahifalar HTML tilida yaratilib, ma'lumotlarning turli ko'rinishlariga ega bo'ladi.

Internetning eng ma'lum va keng tarqalgan qismi bu WWW (World Wide WEB) deb nomlanuvchi to'rdir. Bu to'r WEB saytlar va alohida WEB sahifalardan tashkil topgan.

HTML tilidan foydalanish uchun dasturchi mutaxassis bo'lish shart emas, chunki bu til juda oddiy va har kim undan foydalanishi mumkin. HTML da ishlash uchun oddiy kompyuter foydalanuvchisi bo'lish va internetda ishlash bo'yicha ozgina malakasi bo'lsa yetarli. HTML tili yordamida har kim o'zining shaxsiy

WEB sahifasini yoki butun boshli bir WEB saytini yaratish orqali o'zini butun dunyo axborot fazosida his qilishi mumkin. Albatta faqat HTML ni bilish interaktiv savdo saytlarini yaratish uchun yetarli emas. Bunday jiddiy maqsadlar uchun dasturlash bo'yicha yaxshi bilim va internetning har xil texnologiyalarini bilish talab qilinadi.

Ammo HTML ning qulayligi shundaki bu sodda instrument orqali zarur axborot WEB saytlarini yaratish mumkin. HTML (jihozlari) tarmoq foydalanuvchilari uchun 5 – 10% ni inobatga olmaganda hamma imkoniyatlarga ega. Agarda o'zingizning saytingizda biror maxsus texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'ilsa, u holda yana boshqa adabiyotlarni o'rganish lozim bo'ladi. Yangi tarmoq dasturini o'rganishdan oldin esa HTML ning imkoniyatlarini qo'llashni o'rganish lozim.

HTML boshqa zamonaviy tarmoq dasturlari texnologiyalariga nisbatan sodda bo'lsada, internet – butunjahon to'ri shu til (HTML) yordamida yaratilgan bir qancha xususiy va korporativ saytlarning majmuasidir. Internet texnologiyasi va shu bilan birga HTML tili ham kompyuter industriyasining rivojlanishiga bo'lgan bir yordam bo'ldi.

Gipermatnli murojaatlar haqida tushuncha. WEB sahifalarga giper-murojaat WWW ning asosiy xususiyatlaridan biridir. Istalgan bir hujjatdan boshqa bir WWW hujjatga HTML ning maxsus tegi yordamida murojaat bo'lishi mumkin. WEB ga sayohat paytida ko'pchilik WEB sahifalarda gipermatnli murojaatlarga to'qnashgan. Bu matn fragmentlari ko'k shriftda va tagi chizilgan bo'ladi. Shu tariqa tasvirlangan matnlar murojaat matnlari deyiladi. Agar uni sichqoncha bilan chertilsa u avtomat ravishda boshqa WEB sahifaga murojaat qiladi.

WEB brauzerlar. Internetning WWW xizmatidan foydalanish uchun ham maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Ular **WEB brauzerlar** (Browser) deb ataladi. **Browser** – inglizcha so'z boilib, **ko'rishni ta'minlash, ko'rsatish** ma'nosini anglatadi. Bu so'zning o'zbekchaga to'g'ridan – to'g'ri tarjimasi «sharxlovchi dastur» ma'nosini beradi. Brauzerning asosiy vazifasi foydalanuvchi talabiga muvofiq manzilni internetdan topish va qiyinchiliksiz

uni tasvirlashdir. Oldiniga brauzer HTML tilida yozilgan «instruksiyani» tahlil qiladi va bu instruksiya yordamida WEB sahifada mavjud boʻlgan axborotni tasvirlaydi.

Birinchi WEB brauzer 1990-yil **CERN** (Yevropa Yadroviy Tadqiqotlar Kengashi) hodimi **Tim Bernersli** tomonidan ishlab chiqilgan.

Hozirgi kungacha juda koʻp WEB brauzerlar ishlab chiqarilgan. Google Chrome, Safari, Mozilla Firefox, Mosaic, Opera, AdWiper, Netscape Navigator, Netscape Communicator, Microsoft Internet Explorer va Power Browser shular jumlasidandir. Shulardan eng koʻp foydalaniladigani Netscape Communicator va Microsoft Internet Explorerdir.

Microsoft firmasining Internet Explorer dasturini Windows operatsion sistemasi tarkibiga kiritganligi bu brauzerning keng tarqalishiga sabab boʻldi.

WEB brauzerlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- WEB sahifalarni xotiraga yuklash va koʻrish;
- WEB sahifani diskka yozib qoʻyish (saqlash);
- WWW dagi adresi boʻyicha WEB sahifani chaqirish.

Elektron pochta qoʻllash. Elektron pochta - kompyuterlar orasida xabar uzatishni Lokal va Global asosda tashkil qiladi. Elektron pochtdan faqat xabarlarni emas, balki fayllarni uzatish uchun ham foydalaniladi. Ular yordamida tezkor usulda bir yoki bir nechta manzillar bilan axborot almashish mumkin. Elektron pochta qutilari soni 1997 yil boshida 250 millionni tashkil etdi. Elektron maʼlumotlar manzil va maʼlumotlar mavzuidan iborat boʻladi. Manzil qismi odatda oluvchining manzilgohini, joʻnatuvchining manzilgohini, maʼlumot mavzuini, fayllar xabarlariga ilova qilinuvchi axborotlarni oʻz ichiga oladi.

1.4-§. CSS (Cascading Style Sheets) haqida.

CSS – bu stillar bilan ishlay oladigan kaskadli stillar majmuasidir. WEB sahifalarga har xil stillar berish uchun ishlatiladi. HTML xujjat ichida teglar bilan birga foydalaniladi. CSS kodlarini kompilyastiya qilish uchun qandaydir

kompilyatorlar, qandaydir dasturlar, va bu kod tushuna oladigan qandaydir redaktorlar kerak bo'lmaydi. Bu kodlarni HTML singari WEB brauzerning o'zi kompilyastiya qiladi va natijani chiqarib beradi.

Bu stillar jadvali (CSS) to'liq holatda **1997** yilda tashkil topib, "**WWW Consorciium**" ida qo'llab quvvatlangan va foydalanishga taqdim etilgan. O'sha paytlarda HTML ning 3 versiyasi ommabop edi. CSS ni dastlab **Netscape Navigator 4.0** va **Internet Explorer 4.0** brouzerlarida ko'rish mumkin bo'lgan. Hozirda barcha brauzerlar CSS da yozilgan kodlarni tushuna oladi. Bu stillarga oid dasturlash tilini o'rganish sodda bo'lib, yangi stillar qo'shilishi natijasida kengayib bormoqda.

CSS ni HTML xujjati ichida. WEB sahifada ishlatiladigan CSS kodlari orqali hosil qilinadigan stillarni hammasini bitta faylga yozib, uni serverda saqlaymiz. So'ng sahifadan serverdagi saqlab qo'yilgan faylga murojaat qilib, kerakli stilni olamiz. Bu usul katta hajmdagi WEB sahifalar yaratishda foydali hisoblanadi. Faylga murojaat, **<head>** tegi ichida amalga oshiriladi va quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

```
<link rel=stylesheet type="text/css" href="url">
```

<link> tegi sahifa biror faylga murojaatni amalga oshirmoqda degani, **REL** – fayl qandaydir stillardan iborat degani, **TYPE** - stillar css kodlaridan iborat va fayl joylashgan manzil yoziladi.

CSS kodlar veb sahifa ichidagi **<head>** tegi orasida beriladi. Bunda yaratilgan stillar shu sahifaga tegishli bo'ladi, bu degani faqat shu sahifada ishlatilish mumkindir.

```
<head>
```

```
< STYLE TYPE="text/css">
```

```
<!--A {text-decoration:none; }-->
```

```
</--STYLE>
```

`</head>`

Navbatdagi turi, bu har bir element uchun alohida teg ichida stil berib chiqishdan iborat. Misol uchun, “p” tegi ichida biror matn yozilsa, shu matn uchun teg ichida alohida stil beriladi va bu stil shu teg uchun xususiy bo’ladi. Bu usuldan foydalanishni maslahat bermiman, chunki bu usul kodlarni chalkash va tushunarsiz bo’lishiga olib keladi. Shoshilinch vaziyatlarda yoki stil qay tartibda namoyon bo’lishni ko’rib olish uchun bu usuldan foydalanishni maslahat beraman.

Undan tashqari `<style>` tegi orqali css faylni import qilish mumkin bo’ladi.

`@import: url(mystyles.css);`

CSS stillarini ishlatishda, quyidagi guruhlash usullaridan foydalanish, tartibli WEB sahifa tuzishga olib keladi:

Kodlarni ixchamlash uchun, xar hil elementlar uchun bir hil tipdagi stillarni guruhlab ishlatish maqsadga muvofiqdir.

`H1 {font-family: Verdana}`

`H2 {font-family: Verdana}`

Yuqoridagi stilni guruhlab quyidagicha yozamiz.

`H1, H2 {font-family: Verdana}`

Guruhlashda bir hil element uchun bir necha stillarni birlashtirish mumkin.

`H2 {font-weight: bold}`

`H2 {font-size: 14pt}`

`H2 {font-family: Verdana}`

Barcha stillarni bittaga yig’amiz.

`H2 {font-weight: bold; font-size: 14pt; font-family: Verdana;}`

Ba’zi stillar bitta stil ichida berilishi ham mumkin.

H2 {font: bold 14pt Verdana}

CSS stillari bilan ishlaganda, element ichidagi elementlar ham o'zidan yuqori turgan element stilini qabul qiladi, ya'ni o'zidan oldingi element "ota" vazifasini bajaradi va o'z "farzandlari"ga ham o'zida borini beradi. Misol uchun, <p> tegi ichidagi matn ko'k rangda yozilishi lozim bo'lsa(P {color: blue}), <p> tegi ichidagi tegiga tegishli bo'lgan matn ham ko'k rangda yoziladi.

Ba'zi stillar faqat yakka tartibda ishlaydi, ya'ni ichki teglarga stillari o'tmaydi(misol uchun, background), shuning uchun barcha stillarni birma bir ishlatib, o'rganib olish lozim. <body> tegiga stil berib, dastlabki o'rnatilish(po umolchaniyu) jarayonini hosil qilish mumkin. Shunda biror elementga stil berish esdan chiqib qolsa, <body> tegida ta'luqli stil esdan chiqqan elementga o'rnatiladi.

```
body {  
  
    color: green;  
  
    font-family: "Verdana";  
  
    background: url(joke.gif) white;  
  
}
```

HTML tilidek stillar jadvali ham bir nechta spetsifikatsiyalarga ega. Biz CSS (Cascading Style Sheets) standartidan foydalanamiz. U juda ko'plab WEB - publikatsiyalarda qo'llanilib, hozirgi kunda hamma zamonaviy grafik brauzerlar u bilan ishlay oladilar.

 elementi **face**, **size**, **color** kabi atributlarga ega. U atributlar o'z ichiga olgan matnga tegishli buladi.

```
<font face= "Arial" size= "2" color="blue">Xushkelibsiz ...</font>
```

face atributida shriftlar ro'yxati keltiriladi. Agar foydalanuvchida birinchi shrift bo'lmasa, ikkinchisidan u bo'lmasa, uchinchisidan foydalaniladi.

size atributi 1 dan 7 gacha qiymat qabul qiladi. Bundan tashqari, oxirga o'lchamdan katta yoki kichik o'lchamda ifodalash imkoniyati ham mavjuddir.

Buning uchun `size="-2"` kabi yozilib, uning natijasi eng oxirgi o'lchamdan ikki o'lcham kichik o'lchamda yoziladi.

color atributi shrift rangini bildiradi. U rang nomi (red, green, yellow, blue, ...) yoki 16 lik o'lchamda ham ifodalanishi mumkin.

<center> konteyneridan foydalanib sahifaning o'rtasiga matn, tasvir, gipermurojaat, ... lar kabi ixtiyoriy elementni joylashtirish mumkin, hatto multimedialarni ham.

Foydalanuvchi stillar jadvalini quyidagi turlarini yaratishi mumkin:

- Stillar atributi. Stillar HTML elementlar va konteynerlarining har biriga qo'llaniladi.
- Element stilini aniqlash. Stillar jadvali orqali biror bir element (`<p>`, `<h1>`, ...) ni stilini aniqlash mumkin.

Stillarni ikki usulda yaratish mumkin:

1. Stillar haqidagi ma'lumotlarni `<head>`, ... `</head>` sektsiyasi ichiga joylashtirish mumkin.
2. Sahifani alohida stillar aniqlanadigan fayl bilan bog'lab qo'yish mumkin.

Style atributi.

`Bosh sahifa`

yoki

```
<table>
```

```
  <tr>
```

```
    <td style="width:200">100</td>
```

```
    <td style="width:300">100</td>
```

```
  </tr>
```

```
</table>
```

kabi ishlatish mumkin.

Style elementi. Agar yaratilayotgan WEB sahifa 2-3 sahifadan iborat bo'lsa, style atributi ko'plab qo'llanilishiga to'g'ri keladi. Butun sahifaga bir xil stil qo'llamoqchi bo'lsak, style elementini qo'llash qulayroqdir:


```
<head>
  <style type= "text/css">
    p {font-style: italic}
  </style>
```

```
</head>
```

style elementini qo‘llash umumiy holda quyidagichadir:

```
<head>
  <style type="text/css">
    Element nomi {xususiyati: qiymati}
  </style>
```

```
</head>
```

Natijada hamma elementlar WEB -sahifada bir xil stilga ega bo‘ladi va bir xil ifodalanadi.

Bundan tashqari bir nechta element xossalarini ham birdaniga berish mumkin:

```
<head>
  <style type= "text/css">
    p {font-style: italic}
    h1 {color: blue}
    ul {list-type: disc}
  </style>
```

```
</head>
```

Bir elementning bir necha xossalarini ham birdaniga berish mumkin:

```
<head>
  <style type= "text/css">
    p {
      font-style: italic;
      background: yellow;
      padding-left: 12 px;
    }
```

```
</style>
```

```
</head>
```

Tushunish osonroq bo‘lishi uchun hamma xususiyatlarni alohida qatorlarga yozish tavsiya etiladi.

Agar bir necha elementga bir xil stil berish kerak bo‘lsa quyidagicha yozish mumkin:

```
<head>
```

```
<style type="text/css">
```

```
  p, h1, h2, ul, ol {font-family: Times New Roman}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

Bundan tashqari butun sahifada ham har xil stillardan foydalanish mumkin:

```
<head>
```

```
<style type="text/css">
```

```
  body { font-family: Times New Roman; font-size: 12 pt}
```

```
  ul { font-size: 10 pt}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

Maxsus sinflarni yaratish. Stillar jadvali yordamida alohida elementlarning xususiyatlarini emas, balki, maxsus sinflarni yaratish ham mumkin. Quyidagi misol bilan tanishing:

```
<head>
```

```
<style>
```

```
  h1.qizil {color: red}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
<h1>Oddiy sarlavha</h1>
```

```
<h1 class="qizil">Oddiy bo‘lmagan, qizil sarlavha</h1>
```

```
</body>
```

Bu misolda **h1.qizil** selektori odatiy **h1** elementi o'rniga ishlatildi. Bu yerda ko'rsatilgan stillar faqatgina **class** atributi qo'llanilgan joyda ishlaydi. Buning afzalligi shundaki, bir elementning o'zini bir necha xil stillarda ifodalash imkoniyati paydo bo'ladi.

Bundan tashqari biz universal sinflarni ham yaratishimiz mumkin. WEB sahifaning tanasida ixtiyoriy elementni unga ulab o'sha stilda ifodalashimiz mumkin bo'ladi.

II BOB. O‘QUV MUASSASASI UCHUN YARATILGAN SAYTLARDAN O‘QUV JARAYONIDA FOYDALANISH

2.1. O‘quv muassasasi uchun yaratilgan saytlarning ahamiyati.

Bu bo‘limda o‘quv muassasasi uchun yaratilgan saytlarning ta’lim va tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rib chiqamiz. Ma’lumki, bugungi kunda “Internet” deb nomlangan xalqaro kompyuter to‘rining juda katta tezlik bilan rivojlanishi, uning kundalik hayotimizda odatiy holiga aylanishiga olib keldi. Har kuni internetdan foydalanuvchilar soni bir necha millionga ortib, turli qit’alar va va dunyoning turli burchaklaridagi insonlarni o‘zaro bir-biri bilan bevosita aloqa kanallari orqali bog‘lash, ma’lumot almashinishda juda qulay vosita bo‘lib bormoqda. SHu o‘rinda quyidagi ma’lumotni keltirib o‘tishni joiz deb topdik: 50 millionlik faol foydalanuvchi (tinglovchilar) auditoriyasini to‘plash uchun radioga 30 yil, televideniya esa 13 yil kerak bo‘lgan bo‘lsa, xuddi shunday natijaga erishish uchun internetga atigi 4 yil etarli bo‘ldi.

Internet texnologiyalarining imkoniyatlari kengligi va sodda ekanligi internetdan foydalanuvchilarning daqiqa sayin ortib borishiga olib kelmoqda. Bu foydalanuvchilar orasida ko‘pchilik qismini albatta, talabalar, o‘quvchilar, ilmiy izlanish bilan band bo‘lgan xodimlar tashkil qiladi. SHundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida Internet texnologiyalaridan, xususan o‘quv muassasalariga bag‘ishlangan veb-saytlardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi. Yangi axborot texnologiyalar vositalari takomillashib va rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda o‘quv muassasasida tahsil olayotgan o‘quvchi yoshlarning (umuman har qanday sohada faoliyat ko‘rsatuvchilarning) zarur axborotlarni Internet tizimidan mustaqil ravishda topa olishi, ular duch keladigan mavjud mutaxassisligiga oid muammolarni to‘la va to‘g‘ri hal qila olishidagi muhim sharoitlardan biriga aylanib bormoqda. Ma’lumki, axboriy dunyoqarashning shakllanishi insonda tizimli tafakkurning rivojlanishiga bog‘liqdir. Chunki, u insonga turli – tuman dasturli va kompyuter vositalari sharoitida to‘g‘ri

mo'ljal olishga va harakatlanishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniqlashda avval Internet hizmatining turlari va ularning harakterini aniqlab olish nihoyatda muhimdir. Aynan ana shu aniqlangan ma'lumotlar Internet tarmog'ida ishlashning tashkiliy jihatdan shakli va usullarini ajratib olishga yordam beradi. Klassifikatsiyalashga asos qilib internetning ishlash uslubini olish mumkin. Bu holda Internet server xizmatlarini ikkiga: axborotli va kommunikatsion xizmat turlariga ajratish kerak.

Axborotli xizmatga WWW(ma'lumotlar majmuasi) va FTP(dasturlar majmuasi) lar kiritiladi.

Kommunikatsion xizmatni esa ikkiga: bevosita (PC, chat) va bilvositamuloqot (elektron pochta, forum, telekonferensiya) turlariga ajratish mumkin. Internetdagi barcha "o'quv muassasa uchun yaratilgan sayt" larni o'z navbatida bir necha turga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi internet manbalari;
- maslahat beruvchi internet manbalari;
- axborotli internet manbalari;
- baholovchi internet manbalari;
- taqdimotli internet manbalari;

Quyida shularning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz:

- O'rgatuvchi internet manbalariga masofaviy ta'lim, virtual maktablar, laboratoriyalar va veb klasslarni misol sifatida keltirish mumkin.
- Maslahat beruvchi internet manbalariga turli telekonferensiyalar, virtual ped.kengashlar, virtual uslubiy, birlashmalar muammoviy kengashlar, virtual kafelar va h .larni misol keltirish mumkin.
- Axborotli internet manbalariga elektron o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, elektron kutubxonalar, lug'atlar, kataloglar, virtual muzeylarni keltirish mumkin.
- Baholovchi internet manbalarga teletesting, masofaviy konkurslar, proektlar, turli viktorinalar, olimpiadalarni misol keltirish mumkin.

- Taqdimotli internet manbalariga ta'lim muassasalarining ta'lim yo'nalishlari haqida atroflicha ma'lumotlar yoritilgan alohida sahifalarni keltirish mumkin. Internetdan kerak bo'lgan axborotni qidirib topish oson ish emas. Ma'lumki, Internet gipermatnli tizimlaridan iborat bo'lib, 1 giper yo'llanmadan (gipersilka) keyingi yo'llanmaga borishda ba'zan maqsad sari yaqinlashish, yoki aksincha uzoqlashish mumkin. SHunday qilib, Internet eng oddiy muammoga, ya'ni Internetdagi sayohatni aynan nimadan boshlash kerakligi haqidagi savolga javob bermaydi. Bu muammoni hal qilish uchun, Internetdan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirishda zarur bo'ladigan quyidagilarni bilish zarur:

- qidiruv tizimlari va ular ustidagi ustqurmalar;
- ma'lumotni bir nech tizimda qidirish sahifalari;
- kataloglar(ularni bilish);
- mavzular bo'yicha qidirish tizimlari va kataloglar;
- giperyo'llanma(gipersilka) lar kolleksiyasi(to'plami).

Qidiruv tizimlari va ular ustidagi ustqurmalarini quyidagi tartib bilan o'rganish ma'qul.

Yandex qidiruv tizimi (<http://www.yandex.ru>) da kompyuterga turli xil so'rovlar berib ko'riladi. So'rovlar ro'yhatini asta sekin turli xil mantiq operatorlari, mantiqiy to'plamlar orqali murakkablashtirib borish mumkin. Qidirishni iboralar bo'yicha, berilgan so'zlarning shakllari bo'yicha yoki muayyan tartibda berilgan so'zlar bo'yicha so'rash mumkin.

Rambler(<http://www.rambler.ru>)-2mln.dan ortiq sahifa, 13mingdan ortiq serverlarni qamrab olgan.

Aport(<http://www.aport.ru>)- 1.5 mln.dan .ortiq sahifa, 2mln .dan ortiq URL – manzilni 11ming servsni qamrab olgan.

Eurosearch(<http://www.meta.kharkiv.net/ec/>)-526 davlatning URL-manzillarini o'z ichiga qamrab olgan.

AllSearch(<http://www.allsearch.da.ru>)-mashhur qidiruv saytlarining giperyo'llanmalarini qamrab olgan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mavjud bo'lgan veb-saytlarning u yoki bu sohaga oidlarini, shu jumladan

informatika faniga oid veb –saytlarning giper yo‘llanmalarini to‘plash va ularning eng yaxshilarini mavzular katalogiga joylashtirish zarur. SHu bilan darslarning samaradorligini oshirishda Internet resurslaridan oqilona va eng asosiysi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni tez va aniq topishda yuqori ko‘rsatkichlarga erishish mumkin. Zamonaviy jamiyatda Internet orqali o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning rivojlanishiga quyidagi ikki sababni ko‘rsatish mumkin:

1. Yosh avlodlarning ta’lim potensialiga bo‘lgan talabning ortishi, axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish, jamiyatdagi bilimlarni tezkor almashinuvi, insonni butun umri davomida o‘qishi kerakligi, uzluksiz ta’limni zaruriylashishi.

2. Internet tarmog‘ining va kompyuter texnologiyalarining rivoji, ishlarni kompyuter va kompyuter dasturlari orqali bajarilishisoddalashishi.

O‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning qaysi omillari o‘qituvchi uchun as qotishi mumkin?

Bu omillarini sanab o‘tamiz:

- 1) Mustaqil ravishda tarmoqdagi axborotlar orqali o‘z malakasini oshirish.
- 2) Tijorat hamda notijorat tashkilotlarining o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi masofaviy ta’limini o‘zlashtirishi jarayonida o‘z malakasini oshirish.
- 3) Dars o‘tish uchun o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan materiallar qidirish.
- 4) Hokimiyat serveridan normativ hujjatlar qabul qilish.
- 5) Yangi pedagogik texnologiyalarga oid axborotlar olish.
- 6) Talabnomalar jo‘natish, konferensiya, tanlov va grantlar, hisobot va konferensiyalarga chiqish haqidagi axborotlarni olish.
- 7) Dasturiy ta’minot olish.
- 8) O‘z ishlarini chop qilish va o‘z ishlari to‘g‘risida ma’lumotlar yuborish.
- 9) Hamkasb va do‘stlar bilan xat yozishmalar. Hamfikrlar va hamkasblarni boshqa shaharlar va davlatlardan qidirish.

Axborot texnologiyalari rivojlanayotgan bir paytda, ta'limberishning yangi usul va texnologiyalari paydo bo'lmoqda. Bu usul vatexnologiyalarni dars jarayoniga qo'llash o'qituvchiga katta imkoniyatlar beradi. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida dars o'tish ta'lim oluvchilarni dars jarayoniga qiziqshi ortishiga olib keladi. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qituvchilar ta'lim oluvchilarga masofadan turgan holda bilim olishlariga imkon yaratadilar. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar ayniqsa o'qitish joylariga qatnashi qiyin bo'lgan ta'lim oluvchilarga qulaydir. Bulardan tashqari ta'lim oluvchilar axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati, ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan dars jarayonida foydalanish juda katta imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalarni qo'llashda kutubxona yoki boshqa joylardan adabiyotlarni qidirishga hojat qolmaydi. Sababi, Internet tizimi yordamida ta'lim oluvchilar kerakli adabiyotlar va ma'lumotlarni olishlari mumkin.

Hozirda ma'lumki o'quvchilarni ikki bosqichda tayyorlash, ya'ni maktab, undan keyin esa litsey va kasb – hunar kollejlarida ta'lim olishni davom etirishlari majburiy qilib qo'yilgan. Ayniqsa, kasb – hunar kollejlarida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida darslarni tashkil qilish ularda o'qishgaqiziqishni ortishiga olib keladi. Kasb – hunar kollejlarida ularni ta'lim jarayoniga qo'llash bir qancha qullayliklarga ega. Masalan, o'quvchilarni mustaqil bilim olishlariga imkon yaratiladi, o'z ustilarida ko'proq ishlashadi. Bu esa ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Ta'lim tizimining bugungi vazifasi ham o'quvchi, talabalarni kun sayin ko'payib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatishdan iborat.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qitish, o'quv jarayonini a'naviy tashkil etishning asosiy shakllarini o'z ichiga oladi. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya amaliyoti, nazorat tizimi, tinglovchilarning ilmiy tadqiqot va mustaqil ishlari shular jumlasidandir. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu barcha shakllari amaliyotda

tinglovchilarni mustaqil bilish faoliyati turli axborot manbalari bilan osongina birlashtirishni, kurs olib borayotgan o'qituvchi yoki tyutor bilan tezkor va tizimli aloqa qilish hamda tinglovchilarning guruh bo'lib ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

O'quv jarayonida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o'qituvchilarga:

- internet tarmog'i yordamida u yoki bu o'quv fanlardan to'plangan tajriba va uslublarni boshqa kasbdoshlari bilan almashish;
- bir vaqtning o'zida turli toifadagi talabalar uchun har xil o'qitish uslublarini amalga oshirish orqali o'quv jarayonini yakka lashtirish;
- o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi nazorat topshiriqlaridan mashq sifatida foydalanish natijasida talabalarda fan bo'yicha egallangan bilimlarni ko'nikma va malaka darajasiga etkazish;
- qo'lda bajariladigan ishlarni kamaytirish hisobidan talabalarga yakka tartibda ishlash va o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini yaratish;
- talabalarni mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

O'qitishda o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish talabalarda:

- o'z hohishlariga qarab o'qish holatlarini tanlash;
- tayyorgarliklar va psixofizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlariga mos o'qish metodlari va bayon etish usullarini tanlash;
- oldin o'rganilgan materiallarga qaytish, o'qish jarayonini to'xtatib qo'yish va unga ixtiyoriy vaqtda murojaat qilish;
- turli jarayonlarning dinamikasini va mexanizmlarni o'zaro ta'sirini kuzatish;
- o'rganilayotgan ob'ektlarni boshqarish va ularning mos natijalarini ko'rib borish;
- kompyuterda muloqot qilish psixologik xarakterdagi to'siqlardan holi bo'lishga (kulgu bo'lmaslik, jur'at etmaslik, uyalmaslik kabilar) olib kelishi;
- tayyorgarlik darajalari etarli bo'lgunga qadar kompyuterdan sabr bilan foydalanish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning ta'lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o'tish mumkin:

- fanlarni o'zlashtirilishni yaxshilanishi;
- tarmoq savodxonligini ortishi (Kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar);
- o'rganishga bo'lgan munosabatni yaxshilanishi;
- mustaqil ta'lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi;
- amaliy malaka samaradorligini oshishi.

2.2. Informatika amaliy va nazariy darslarida saytlardan foydalanish

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarni o'quv jarayonida qo'llash o'qituvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashga (o'quv materiallarini tayyorlash: ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarga doir nazariy materiallar tayyorlash, tajriba ishlariga doir materiallarni to'plash, tahlil qilish, dars jarayoniga tegishli ob'ektlar uchun imitatsion modelidan foydalanish, mavzular bo'yicha savol-javoblar va boshqa materiallarni tayyorlash) majbur qilsa, talabalarning darsga qiziqishini, faolligini oshishi, aqliy rivojlanishi va ongli ravishda munosabatda bo'lishga undaydi, bunda ta'lim sifati yaxshilanadi, o'qitish samaradorligi oshadi. Vaqt o'tishi bilan o'quv muassasalar uchun yaratilgan saytlarda eng muhim fanlarning eng yaxshi ma'ruzalari chop qilinishi kutilmoqda.

O'qituvchilar bu ma'lumotlardan o'z darslariga asos sifatida foydalanishlari mumkin. Ma'lumotlar jo'natishda tezlikning ortishi bugungi matn ko'rinishidagi Internetni multimediyali interaktiv telekanalga aylanishi boshorat qilinmoqda. Bugungi kunda Internetdan ajralishlik mukammal bo'lgan ta'limdan mahrum bo'lishlikdir O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan nazariy darslarda foydalanish metodikasi 7 ta bosqichdan iborat bo'lib, bular quyidagilar:

BIRINCHI BOSQICH. Darslarga tayyorlanishda eng avvalo talabalarning berilgan muayyan darslarga tayyorgarligi avtomatlashtirilgan holatda talabalarning ma'ruza darslari mavzusi bilan bog'liq nazariyani bilishi; muayyan

ma'lumotlarni bilishi; uy vazifalarining to'g'ri bajarilganligi tekshiriladi. Bundan tashqari, bu bosqichda talabalarning ma'ruza darslarida zarur bo'lgan nazariy bilimlarni faollashtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun bir ma'lumotning o'zi parallel barcha displeylarda bir vaqtning o'zida hamma talabalarga ko'rsatiladi, ya'ni kadrlar birin-ketin o'tkaziladi. Kadrlarning chidamlilik vaqti qo'rsatilayotgan materialning murakkabligiga bog'liq ishlash vaqti bilan ya'ni 15 – 20 sekund tenglashtirilishi shart. Biroq past o'zlashtiradigan talabalar darsning bu bosqichida dastlabki o'rnatilgan ma'lumotlardan foydalanishlari uchun, ularga murojaat qilishni ma'ruza darsining butun davri mobaynida ruxsat berish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi internetga kirib o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarni ishga tushiradi yoki ushbu sayt manzillari ro'yxatini talabalarga beradi. Talabalar esa diqqatni jamlab, o'qituvchi faoliyatini kuzatadi. Bu bosqichda asosiy maqsad talabalarning diqqatini jamlash bo'lib, joriy ishlarni amalga oshirgan holda, uni 5-10 minut bilan chegaralash mumkin.

IKKINCHI BOSQICH. Bu bosqichda o'qituvchi mavzuni e'lon qiladi, fanni maqsad va vazifalari, mavzu rejalari, undagi tayanch tushunchalar, ma'ruza mazmuni, kutilayotgan natijalar bilan talabalarni tanishtiradi. Oldingi mavzu bilan joriy mavzuni bog'laydi. Talabalar bu bosqichda o'qituvchi bergan ma'lumotlarni tinglaydilar va o'qituvchi talabalarda keltirilgan axborotlarga nisbatan kuchli motivatsiyani shakllantirish zarur. Bu bosqichga 10 minut vaqt ajratiladi.

UCHINCHI BOSQICH. Bu bosqichda o'qituvchi talabalarga o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarni qo'llagan holda mavzuni tushuntirib beradi. Darslarning samaradorligini oshirishda:

- darsda foydalanilayotgan usullarning bir xilligini yo'qotish;
- etarlicha dasturli o'rgatish elementlarini darsda qo'llash;
- darsda vaqtdan foydalanish ratsionalligini ta'minlash;
- muammoli o'qitish elementlarini ko'proq qo'llanilishi;

- darsda videofilm, multimedia vositalaridan ko‘proq foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunda o‘qituvchining nutqi muhim oddiy, tushunarli, emotsional nutqga ega bo‘lishi kerak. Asosiy e‘tiborni yangi tushunchalar, tayanch iboralarni tusahuntirishga qaratish, ortiqcha so‘zlarni ishlatmasligi kerak. Bu bosqichning asosiy maqsadi - talabalarda keltirilgan axborotlarni ilmiy bilimlarni tizimli ravishda berish, ularda ijodiy izlanuvchanlikni, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish. Bu bosqichga 25 daqiqa vaqt ajratiladi.

TO‘RTINCHI BOSQICH. Tahlil bosqichida o‘qituvchi talabalar tomonidan kiritilgan g‘oyalarning qizg‘in tahlil qilinishi uchun sharoit yaratadi. Talabalar axborotlarning ba‘zi jihatlarini aniqlashga va kiritilgan g‘oyalarni, fikrlarni qizg‘in tahlil qilib, eng to‘g‘ri g‘oya va fikrlarni aniqlab oladilar. Bu bosqichda talabalarning dars davomida o‘rganish, bilim olish faolligini oshirish, ularning shaxsiy fikrlarini dadil aytishiga, erkin, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga erishiladi. Talabalarda muammo mohiyatini to‘g‘ri idrok qilish, keng mantiqiy fikrlash uchun barcha imkoniyatlaridan foydalanadilar. Bu bosqichga 15 daqiqa vaqt ajratiladi.

BESHINCHI BOSQICH. Nazorat bosqichida talabalarning ma‘ruzadagi tayanch tushunchalar, yangi bilimlar qanday o‘zlashtirilganligi nazorat qilinadi. Bunda o‘qituvchi elektron (kompyuterlar orqali) yoki qog‘oz (tarqatma material) variant bo‘yicha testlardan foydalanadi. Talabalar mavzudagi asosiy tayanch tushunchalarni o‘rganadilar va ularda faollik, ijodkorlik hissi rivojlanadi, o‘z xatolarini tuzatish va yanada yaxshi bilim olishga intilish oshadi. Bu bosqichga 15 daqiqa vaqt ajratiladi.

OLTINCHI BOSQICH. Vazifa bosqichida talabalarga sayt yordamida testlar yoki krossvordlar ko‘rsatiladi va uni echish vazifa qilib beriladi. Bundan tashqari, fanga doir, mavzu bo‘yicha internet tarmog‘idan kerakli materiallar to‘plash, tahlil qilish va ulardan foydalanish, fan bo‘yicha foydali saytlar nomi, mavzudagi tayanch tushunchalar asosida krossvord tuzish vazifalari

beriladi. Bu bosqichda talabalar vazifalarni tushunib, ularni bajarish mas'uliyatini his qilishlari kerak. Bu bosqichga 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

ETTINCHI BOSQICH. Yakuniy bosqich bo'lib, o'qituvchi mavzu xulosasini aytadi va darsga yakun yasaydi. Ma'ruza darsining bu bosqichi o'tkazilgan ishlarning tahlili va muhokamasiga bag'ishlanadi. Bu bosqichda o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning masaofaviy o'qitish tizimiga asoslanganlari qo'yidagilarni amalga oshirishi mumkin: talaba darsdagi ishlarning muvaffaqiyatini baholaydi, ya'ni elektron variantda o'qituvchi pochta-siga o'z talab va takliflarini jo'natishi yoki anketa-so'rov savollariga javob beradi. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash, texnika sohasidagi fanlar uchun – bu nazariy yo'riqlarni mustahkamlash va ko'nikmalarni oshirish maqsadidagi mashq va masalalarni echishdir.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarni qo'llagan holda barcha turdagi amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun universal metodik tavsiyalarni ishlab chiqish qiyinchiliklar tug'diradi. Shunga qaramasdan, muayyan shartlarga bog'liq bo'lmagan holda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari umumiy mantiqiy tuzilishga ega bo'lib, har biri o'z ichiga 7 ta bosqichni oladi: mashg'ulotlarga tayyorlanish, mashg'ulotga doir namuna masala echish va tushuntirish, topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish va bilimlarni faollashtirish, tahlil, baholash va yakun, laboratoriya mashg'ulotlari uchun ham shunday bosqichlar mavjud.

Bugungi kunda telekommunikatsion texnologiyalar fanning barcha sohalariga, texnikaga, dunyoning barcha mamlakatlarida insonlarning ijtimoiy va shaxsiy turmush tarzlariga yana ko'proq kirib bormoqda. Bundan tashqari informatikani o'qitish jarayonida amaliy faoliyatga tayyorlash vazifasini to'g'ri hal etishga erishish uchun informatika kursining ilmiyligini oshirish lozim. Faqatgina to'g'ri va chuqur xulosalar qila olsagina, o'quvchilar har bir masalani echishga tanqidiy va ijodiy yondasha oladilar, yangi muammolar oldida o'zlarini yo'qotib qo'ymaydilar va turli shart-sharoitlarda unumli faoliyat

ko'rsata oladilar. Shuningdek, amaliy ish o'quvchilarning dunyoqarashini oshirishi va uni yangi faktlar bilan boyitishi bilan bir qatorda, informatikadan bilim darajalarini oshiradi, chuqur, to'liq va mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Informatika fanini o'qitish qo'yidagi maqsadni ko'zda tutadi:

- bo'lajak o'qituvchilarni informatika fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;
- bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqida tasavvurlarini rivojlashtirish va hamda chuqurlashtirish. Bo'lajak informatika o'qituvchisi o'sib kelayotgan avlodning umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan informatika va axborot texnologiyalari fanlarining ahamiyatini, uning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, informatika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.

Informatika fanining amaliy mashg'ulotlarda saytlardan foydalanish metodikasini keltiramiz. Bu metodikani "Shaxsiy kompyuterlarning qurilmalari" mavzusi orqali bayon qilamiz. Mashg'ulotning maqsadlari. Shaxsiy kompyutrlarning qurilmalarini amaliyotda ajrata olishga, kompyuterni yig'ish va uning narxini baholashga o'rgatish.

Tarbiyaviy: kasbiy faoliyatiga doir bilimlarni chuqur egallash, jamiyat oldida burch va ma'suliyatni sezishni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: bilimlarni qo'llay bilishni shakllantirish, mantiqiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Mashg'ulotning shakli: amaliy (80daqiq).

Mashg'ulot metodi: kompyuterli o'qitish va «kichik guruhlar» bo'lib ishlash.

Jihoz: proektor, internetga ulangan kompyuterlar, Shaxsiy kompyuterlarning apparat qismlari bo'yicha saytlar ro'yxati, topshiriq variantlari.

Mashg'ulotdan kutiladigan natijalar. O'qituvchi: talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishni shakllantirish, oqilona boshqarish, zeriktirmaslik, doimiy nazorat va adolatli baholash, qisqa vaqt ichida ko'p narsaga erishish, talabalarning evristik faoliyatini oshirish.

Talaba: olingan bilimlarni tizimlashtirish va amalda qo'llash, mustahkamlash va baho olish, guruh bo'lib ishlash ko'nikmasini hosil qilish, mustaqil, mantiqiy va dadil fikrlashga o'rganish.

Mashg'ulotning borishi.

Tashkiliy qism. O'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni 4—5 o'quvchidan iborat guruhlarga ajratadi.

Bilimlarni faollashtirish: barcha talabalarga ijodiy vazifa berilgan.

1-BOSQICH. Tayyorgarlik (10 daqiqa).

O'qituvchi faoliyati: talabalarni 2-amaliy mashg'ulot mavzusi, ishning asosiy maqsadi tadqiqot sohasining lokal ko'rinishlarini modellash, ularning umumiy bo'lgan konseptual modelga birlashtirish kerakligini tushuntiradi va talabalarni 5 ta kichik guruhga ajratadi. Har bir kichik guruh 5 ta talabadan iborat.

Talaba faoliyati: talabalar 4-6 kishidan iborat kichik guruhlarga birlashadilar va mashg'ulot metodini tushunib oladilar. Kutilayotgan natija: talabalarda keltirilgan axborotga nisbatan kuchli motivatsiyani shakllantirish.

2-BOSQICH. Namuna masala echish va tushuntirish (15 daqiqa).

O'qituvchi har bir guruhga , Shaxsiy kompyuterlarning apparat qismlari bo'yicha saytlar ro'yxatidan iborat materiallarni tarqatadi va quyidagi vazifani bajarishni tavsiya etadi:

- berilgan materiallardan kompyuterning asosiy va atrof qurilmalari bo'yicha ma'lumotlarni topish;
- ular bo'yicha kompyuter texnikasining zamonaviy bozori bilan tanishib chiqish;
- aniq narxlarni bilish;

- aniq bir tashkilot (ofis, bank, maktab va hokazo) uchun turli atrof qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterni tanlash va yig'ish (har bir guruh bitta tashkilotni tanlaydi);
- yig'ma (podborka) hosil qilish (maqolalar, rasmlarni qirqib olish) va vatmanga elimlash;
- hosil bo'lgan komplektning umumiy narxini baholash;
- o'zining taqdimotini namoyish etish.

3-BOSQICH. Topshiriq (5 daqiqa). O'qituvchi faoliyati:

topshiriqni guruhlariga tarqatadi, masalaning qo'yilishini tushuntiradi va topshiriqni bajarish uchun ketadigan vaqtni belgilaydi. O'quvchilar guruhlarda ishlaydilar. O'qituvchi ularni nazorat qilib, to'g'rilab, yordam berib turadi.

4-BOSQICH. Topshiriqni bajarish va bilimlarni faollashtirish.

(20 daqiqa). O'qituvchi faoliyati: talabalarning ish faoliyatini kuzatadi, ishlash jarayonida ayrim noaniqliklarni bartaraf qiladi, berilgan savollarga javob beradi. Talaba faoliyati: topshiriqni bajarish mobaynida o'z bilimlarini amaliyotda qo'llaydi. Kutilayotgan natijalar: talabalarda mustaqil ishlash, bilimni amalda qo'llash, ijodkorlik, o'z faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, mantiqiy fikrlash, tashabbuskorlik, faollikni shakllantirish.

5-BOSQICH. Tahlil (20 daqiqa1). O'qituvchi faoliyati:

talabalar yo'l qo'ygan xatolarni tuzatish, xato bilim o'zlashtirish oldini olish, talabalar faoliyatini tahlil qilish. Talaba faoliyati: ishlab chiqilgan topshiriqni taqdimot orqali tushuntiradilar va o'z kamchiliklarini tuzatadilar. Har bir guruh o'zlari bajargan ishni taqdim etadi.

Taqdimot jarayonida savol-javob bo'lishi mumkin.

Kutilayotgan natija: talabalarda xatolarni bartaraf qilish, o'zining to'g'ri fikrini isbotlash, mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni shakllantirish.

6-BOSQICH. Baholash (5 daqiqa). Mashg'ulot nihoyasida o'qituvchi xulosa yasaydi va har bir guruh ishini baholaydi.

7-BOSQICH. YAkun (5 daqiqa). O'qituvchi uy vazifalarni topshiradi, uyda mavzuni takrorlash, vazifaga ijodiy yondashish kerakligini va keyingi

mashgʻulotga tayyorlanib kelishlarini aytib, mashgʻulotni yakunlaydi. Keltirilgan metodika orqali amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazish talabalarda olingan bilimlarni tizimlashtirish va nazariy bilimlarni amalda qoʻllash malakasini oshirishga, mustahkamlashga, yakka va guruh boʻlib ishlash koʻnikmasini hosil qilishga, mustaqil, mantiqiy va dadil fikrlashni oʻrganishga olib keladi. Topshiriqlarni bajarish davomida talabalar saytlardan maʼlumotnomadan foydalangandek, kerakli maʼlumotlarni oladilar, yangi mavzu bilan oldindan tanishadilar, olgan bilimlardan samarali foydalanadilar. Bu oʻz navbatida talabalarda yuqori aqliy, ilmiy salohiyotning rivojlanishiga olib keladi. Yangi pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalari asosida amaliy mashgʻulotlarni olib borish, talabalarning fanga boʻlgan qiziqishini yanada oshiradi.

2.3. Mustaqil ishlarni bajarishda web saytlarning imkoniyatlari

Taʼlim jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning ahamiyati talabalarni mustaqil bilim olish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, innovatsion faoliyatga qobil boʻlgan ijodiy shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu jarayonni amalga oshirishda «Informatika va axborot texnologiyalari» fani oʻqituvchisi oldida:

- talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda fanning ahamiyatini oshirish;
- mustaqil taʼlim mashgʻulotlarini ishlab chiqish va uni talabalar tomonidan oʻzlashtirish samaradorligini oshirish;
- talabalarning bilish faoliyatini va oʻzlashtirish darajalarini rivojlantirish asosida oʻqitishning usul va shakllarini takomillashtirish;
- taʼlimda zamonaviy axborot texnologiyalarini qoʻllash usullarini ishlab chiqishdek muhim vazifalar turadi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun taʼlimda talabalarning mustaqil bilim olishini kuchaytirishga qaratilgan topshiriqlar yordamida oʻquv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanishga oʻrgatish zarur. Ayni paytda taʼlimda

axborot texnologiyalaridan foydalanishning yagona konsepsiyasi to'la shakllanmagan bo'lsada, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarini modellashtiruvchi kompyuter o'qitish tizimi kun sayin rivojlanmoqda. Bu yo'nalishda turli variantdagi darslik va o'quv qo'llanmalarni shakllantirilishi va shaxsiy kompyuterlarning imkoniyatlari ortayotgani, laboratoriya ishlari va tabiiy eksperimentlarni modellashtiruvchi dasturlarning yaratilayotgani bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Ko'pchilikning fikriga ko'ra, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish eng istiqbolli yo'nalishlardan sanaladi. Ma'lumki, o'quv materiallarini turli tavsiya shakllari, jumladan ba'zan o'rganiladigan hodisani turli nuqtai nazardan qaraydigan darsliklar, yangi mavzularni o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan savollarga ixtiyoriy vaqtda to'la javob olish imkonini beradigan lug'aviy "spravochnik" tizimi, tabiiy fanlarni o'rganishda demonstratsion eksperimentlar va laboratoriya mashg'ulotlari, talabalar tomonidan ixtiyoriy o'quv fanini mustaqil o'rganishda kerak bo'ladigan ehtiyojlardan sanaladi. Mustaqil o'qishda, materiallarni o'zlashtirishda yuqorida eslatilgan elementlardan foydalanish tartibi, har bir talabaning individual xususiyatlari tomonidan belgilanadi.

Talabalarning mustaqil ish dasturi o'zaro parallel faoliyat ko'rsatadigan quyidagi uchta asosiy tizimdan tashkil topadi:

- o o'quv metodik adabiyotlar kutubxonasi,
- o integrallashgan lug'atlar hamda laboratoriya va
- o tabiiy eksperimentlarni modellashtirish tizimlari.

Talabalarga laboratoriya va tabiiy eksperimentlarni mustaqil imitatsiya qilish imkonini berilishi, bu borada bir qancha murakkab masalalarni echish zaruriyatini tug'diradi. Bunda, eksperimentlarning dinamik modellarini avtomatik ko'rish uchun birinchi navbatda, eksperimentni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning modellarini yaratishni taqozo etadi.

Ta'lim muassasalarida internet texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligini belgilash, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo'llashning

eng muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Bu sohada erishilayotgan yutuqlarni hisobga olib, internet texnologiyasini quyidagi jihatlarida ta'lim muassasasi umumiy faoliyati jarayonlarida qo'llash samarali bo'lishini ta'kidlash lozim:

- o'quv muassasasi faoliyatini tezkor boshqarishni interfaol telekonferensiya, virtual maslahatlar, muhim axborotlarni professor-o'qituvchilarning jamoaviy yoki shaxsiy kompyuterlari displeyi ekraniga tashlash orqali tez tashkil etishda;
- ta'limni boshqarish yoxud boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan elektron pochta orqali bog'lanish sharoitini yaratishda;
- boshqa o'quv muassasalari, jumladan chet el muassasalari bilan ijodiy bog'lanishni tashkil etishda;
- INTERNET tizimi yordamida axborot izlash va uni tanlashda.

Ta'lim muassasasining o'quv faoliyatida esa:

- axborot va axborot texnologiyalarini majburiy o'rganishni tashkil etishda;
- barcha fanlar bo'yicha o'rgatuvchi dasturlardan foydalanishda;
- testlar yordamida talabalarning o'zlashtirishini nazorat qilishda;
- kutubxonalar kataloglaridan foydalanish va ommabop kutubxonalardagi kitoblarga INTERNET orqali buyurtma berishda;
- professor va o'qituvchilarning metodik ishlanmalari, ma'ruza matnlari va boshqa o'quv qo'llanmalarini nashrga tayyorlashda;
- INTERNET tizimidagi ma'lumotlardan foydalanib, talabalar tomonidan ma'ruzalar va referatlarni (turli mavzularda) mustaqil tayyorlashga erishishda;
- o'quv va badiiy adabiyotlarning elektron matnlaridan foydalanishda;
- maxsus ensiklopedik lug'atlardan foydalanish imkoniyatini yaratishda va boshqalar.

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, ayniqsa ta'lim mazmuni bilan bog'liq yangilanishlar talabalar o'qishini tashkil etishning yangi shakli va usullariga ham e'tibor qaratishni talab etadi. Jumladan, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shakl bo'libgina qolmasdan, balki ta'lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qismi ham bo'lishini taqazo etadi.

Hozirgi zamon talabiga javob beradigan pedagogik kadrlarni tayyorlashda, mustaqil ishni tashkil etish masalasi katta ahamiyatga ega.

Lekin, o'quv jarayonida kompyuter vositalari yordamida talabalarning fanlarni mustaqil o'zlashtirishi va o'zlashtirgan bilim darajalarini aniqlovchi, on-line muloqot qiluvchi saytlar yaratish hamda zamonaviy kompyuter texnologiyalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalanib mustaqil ishni tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Talabalarning faol mustaqil ishlari faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Bunday eng jiddiy omil – kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir.

Talabalarni mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillarni quyidagicha:

1. Agar talaba o'z ish natijalarining ma'ruza jarayonida, metodik qo'llanmada, laboratoriya ishida yoki amaliy mashg'ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga bo'lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o'zgaradi, hamda ish sifati ortadi.
 2. Mustaqil ishni tashkil etishda talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki xilma-xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar.
 3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish.
 4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan'anaviy imtihon shakllari v.b.). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o'zi talabada o'z ustida ishlashni, o'zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.
- Kasb – hunar kollejlari o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qitishni tashkil qilish ochiq ta'lim turini yaratishning asosiy yo'lidir. Ta'lim oluvchi o'qish jarayonida o'z xato va kamchiliklarini ko'radi va mustaqil tuzatish imkoniga ega bo'ladi.

O'quv jarayonida mustaqil ishlarni bajarishni yaratilgan saytlar yordamida yo'lga qo'yish o'qish samaradorligini oshiradi. Kurs davomida ular bir nechta


bo'lishi mumkin. Bu vazifalarni o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning o'qish serveridan ko'chirib olish va On-line tarzda bu vazifalarga javoblarni jo'natish mumkin. Javoblar nafaqat tekshiriladi, balki xato va kamchiliklari ham izohlab beriladi. O'qish davomida kasb – hunar kollejlari talabalariga turli testlarni bajarish imkoni beriladi. Bu testlar o'zini tekshirish yoki kursni o'zlashtirganligi darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Testlar o'qish serverida bajariladi. Amaliyot uchun vazifalar o'qish serverida joylashtiriladi. Kurs tugagach yakuniy imtihon o'tkaziladi va o'quvchi o'qishni tugatgani haqida hujjat oladi.

III BOB. LOYIXALASH QISMI

3.1 Wordpress dasturida umumta'lim maktablarining web saytini yaratish jarayoni.

Maktab saytini ZiyoNEt tarmog`ida ya'ni wordpress dasturida yaratish uchun sizga id.uz tizimida ro`yxatdan o`tish kerak bo`ladi.

Buning uchun siz brauzeringizda <https://www.id.uz/> sahifasini ochishingiz kerak bo`ladi. Bu sahifa quyidagicha ko`rinishda bo`ladi.



Agar siz tizimda ro`yxatdan o`tgan bo`lsangiz **Войти** tugmasini bosib tizimga kirishingiz mumkin. Ammo tizimda o`z login-parolingizga ega bo`lmasangiz, **Зарегистрироваться** tugmasini bosishingiz kerak bo`ladi. Yuqorida keltirilgan sahifaning yuqori qismidagi **Зарегистрироваться** tugmasini yoki **Войти** tugmasining pastidagi **Зарегистрироваться** ishoratini bosishingiz bir xil natija beradi va ro`yxatdan o`tish sahifasini ochib beradi.

Войти

Зарегистрироваться

Регистрация

Логин*:

Фамилия*:

Имя*:

Отчество:

Открыть ящик на iMail.uz:

E-mail*:

Предпочитаемый пароль*:

Пароль еще раз*:

Пароль не может быть общеупотребляемым словом из словаря
Пароль не должен содержать имя пользователя
Пароль должен содержать более 6 символов

75CУ

Отправить

Ro`yxat shaklining **Отчество** maydonidan tashqari barcha maydonlarini to`ldirish majburiydir.

Quyida ushbu shaklni to`ldirishga misol keltirilgan.

Войти
Зарегистрироваться

Регистрация

Логин*:	<input type="text" value="urganch121"/>
Фамилия*:	<input type="text" value="Artikova"/>
Имя*:	<input type="text" value="Shoxida"/>
Отчество:	<input type="text"/>
Открыть ящик на uMail.uz:	<input checked="" type="checkbox"/>
E-mail*:	<input type="text" value="urganch121"/> @umail.uz
Предпочитаемый пароль*:	<input type="password" value="....."/>
Пароль еще раз*:	<input type="password" value="....."/>
	<input type="text" value="T5CY"/>
Отправить	

Login sifatida tizimga kirish uchun o`zingizga tanlagan laqabingizni kiritasiz. U lotin alifbosidagi istagan harflar va raqamlar birikmasini kiritishingiz mumkin.

Открыть ящик на Umail.uz bayrog`ini umail.uz tizimida pochta qutisini ochish uchun qo`yishingiz mumkin. Agar sizning boshqa pochta qutingiz bo`lsa, bu bayroqchani qo`ymasligingiz mumkin. Bu holda siz o`zingizning mavjud pochta qutingizni ko`rsatishingiz kerak bo`ladi.

Yana shunga ham e`tibor berishingiz kerakki, Ziyonetda sayt yaratish vaqtida umail.uzda pochta yaratsangiz sayt ochilgani haqida pochtangizga hech qanday xabar kelmaydi. Agar boshqa pochta manzilini ko`rsatsangiz, sayt ochilgani haqida unga xabar yuboriladi.

Agar bu bayroqchani tanlasangiz, uning pastidagi **E-mail** maydoni aktivlashadi. Bu maydonga yangi yaratilishi kerak bo`ladigan pochtagiz nomini kiritasiz. Faqat bunda @umail.uz qo`shimchasini kiritish kerak emas.

Uning pastidagi ikkita maydonga faqat o`zingiz biladigan parolni kiritishingiz kerak. Bunda ham lotin alifbosidagi harflar va raqamlardan foydalanishingiz mumkin. Bu ikkala maydonga ham aynan bir xil parolni kiritish kerak bo`ladi. Bunda kata va kichik harflar farqlanadi. Masalan maktab va Maktab so`zlari bir xil deb qabul qilinmaydi.

Eng pastdagi maydonga uning ustidagi rasmda ko`rsatilgan kodni kiritish kerak bo`ladi.

Shundan keyin **Отправить** tugmasi bosiladi. Shunda siz avtomatik ravishda id.uz tizimidagi akkauntingizga o`tasiz. Masalan:

Система идентификации II x

← → ↻ <https://www.id.uz/users/profile>

ID.UZ
СИСТЕМА ИДЕНТИФИКАЦИИ

UZ | RU

ГЛАВНАЯ СПРАВОЧНЫЙ РАЗДЕЛ НОВОСТИ ОБРАТНАЯ СВЯЗЬ О ПРОЕКТЕ

Artikova Shoxida

Спасибо.

Аккаунт

Логин: urganch121

E-mail: urganch121@umail.uz


[Изменить](#) | [Изменить пароль](#) | [Удалить аккаунт](#)

© 2006-2014 Центр UZINFOCOM,
Телефон: (+998 71) 238-42-28

Endi siz akkauntingizdagi ma`lumotlarni o`zgartirishingiz mumkin.

Umail.uz tizimidagi pochta qutisini aktivlashtirish

Buning uchun <http://umail.uz/> sahifasiga o'tasiz. Ushbu sahifaning ko'rinishi quyida keltirilgan.



Bu sahifadagi **Вход в почту** bo'limida ro'yxatdan o'tish vaqtida id.uz tizimida ko'rsatgan loginingizni kiritasiz va **Войти** tugmasini bosasiz. Bunda siz id.uz tizimiga kirish sahifasiga o'tasiz. Masalan:

Аутентификация ID.UZ


Логин/пароль

urganch121.id.uz

Пароль

Запомнить меня

Войти



Bu yerda parol maydonida tizimdagi parolingizni ko`rsatasiz va **Войти** tugmasini bosasiz. Bu sizning umail tizimiga id.uzdagi logingiz bilan birinchi marta o`tayotganligingiz uchun quyidagi sahifa ochiladi.

Подтверждение идентификации


Сайт umail.uz запросил идентификацию по OpenID URL urganch121.id.uz.
Данный сайт также запросил информацию о Вас. Поля, отмеченные * обязательные.

* **Полное имя:** Artikova Shoxida
* **E-mail:** urganch121@umail.uz
* **UserID:** 000710915
* **Телефон:** заполнить *


Навсегда

* данное поле обязательно для заполнения

Разрешить **Запретить**



Siz tizimda o'z telefon raqamingizni kiritmagan bo'lsangiz, albatta telefoningizni to'ldirishingiz kerak bo'ladi. Buning ushun **заполнить** ishoratini bosishingiz kerak bo'ladi.



https://www.id.uz/users/personalinfo/set_phone


Новый номер: (+998)*: 90 ←

Например: (+998) 90 5555555.


На указанный номер будет выслано SMS с кодом подтверждения.

Отправить код подтверждения ←

Ushbu sahifada o'z qo'l telefongizning prefiksini tanlashingiz va uning yonidagi maydonda telefoningiz raqamini kiritishingiz kerak. **Отправить код подтверждения** tugmasini basasiz. Bunda formaning shakli o'zgaradi va quyidagi shaklga o'tadi.



Ushbu formaning **Присланный код** maydoniga qoʻl telefongizga kelgan SMS xabardagi toʻrt raqamli kodni kiritishingiz kerak boʻladi. Ushbu kodni kiritganingizdan keyin **Подтвердить** tugmasini bosasiz. Shunda sizdan id.uz tizimiga kirish uchun qaytadan login va parolingizni kiritish soʻraladi.



Login va parolingizni koʻrsatib, tizimga kirganingizdan keyin sizning tizimdagi maʼlumotlaringiz koʻrsatilgan quyidagi sahifa ochiladi.

Подтверждение идентификации

Сайт umail.uz запросил идентификацию по OpenID URL urganch121.id.uz.
Данный сайт также запросил информацию о Вас. Поля, отмеченные * обязательные.

* Полное имя: Artikova Shoxida
* E-mail: urganch121@umail.uz
* UserID: 000710915
* Телефон: ██████████

Навсегда


Разрешить

Запретить

Ushbu sahifada keyingi safar pochtaga kirganingizda bu sahifani qayta ko`rsatmasligini istasangiz, **Навсегда** bayroqchasini belgilashingiz kerak bo`ladi. Shunda keyingi safar umail.uz dagi pochtagizga o`tishingizda faqat login va parolingizni ko`rsatishingiz yetarli bo`ladi. Shundan keyin **Разрешить** tugmasini bosasiz. Bunda siz avtomatik ravishda umail.uz saytiga o`tasiz.


The screenshot shows the uMail.uz website interface. At the top, there is a navigation bar with links: ГЛАВНАЯ, О ПРОЕКТЕ, СПРАВКА, ИНСТРУКЦИИ, ОБРАТНАЯ СВЯЗЬ. Below the navigation bar, there are banners for SKUD (Система учета посещаемости) and UZINFOCOM. The main content area is divided into sections: О ПРОЕКТЕ, НОВОСТИ, СТАТИСТИКА СЕРВЕРА, and ПОЛЕЗНЫЕ ССЫЛКИ. A notification box on the right side of the page indicates that the user is logged in as 'urganch121' and provides the email address 'urganch121@umail.uz'. The notification box also includes a dropdown menu for 'Планшетный интерфейс' and a button 'Перейти к почте'. Red arrows point to the 'Перейти к почте' button and the notification box.

Bunda sahifaning o`ng tomonida sizning loqiningiz va pochtingiz manzili ko`rsatiladi. Uning pastidagi maydondan interfeys turini tanlashingiz mumkin. Lekin siz hech nimani o`zgartirmasangiz ham o`rnatilgan **planshet interfeysi** ishlash uchun juda qulay va uni o`zgartirish kerak emas. **Перейти к почте** tugmasini bosib, o`z pochta qutingizga o`tishingiz mumkin. Uning ko`rinishi quyidagicha bo`ladi.




Bu yerda siz **Входящие** bo`limida sizga kelgan xatlarni o`qishingiz, **Новое сообщение** tugmasini bosib, boshqalarga xat yozishingiz mumkin. **Выход из системы** ishoratini bosishingiz bilan siz tizimning bosh sahifasiga chiqasiz.

Lekin bu sizning pochtdan chiqqaningizni bildirmaydi. Siz haliyam umail.uz tizimiga kirgan holatdasiz. Tizimdan chiqish uchun quyidagi rasmda ko`rsatilgan tugmani bosishingiz kerak bo`ladi.




ZiyoNETda maktab saytini ro`yxatdan o`tkazish


Eng avvalo www.ziynet.uz saifasini ochasiz.




Sahifaning yuqori qismidagi maydonga id.uz tizimidagi loginignizni kiritasiz va **Kirish** tugmasini bosasiz. Bunda siz avtomatik ravishda id.uz tizimining tizimga kirish sahifasiga o`tasiz.




Login va parolingizni ko`rsatib **Войти (Kirish)** tugmasini bosasiz va tasdiqlash sahifasiga o`tasiz.



Ushbu sahifadagi **Навсегда** bayroqchasini tanlash bilan Ziyonet saytiga keying safar login va parol bilan kirishda ushbu sahifani ko`rsatmaslik kerakligini bildirasiz. Shundan keyin **Разрешить** tugmasini bosasiz.



Bunda siz Ziyonetning bosh sahifasiga o`tasiz va sahifaning yuqori o`ng burchagida sizning id.uzdagi logingiz ko`rsatiladi. Ushbu sahifaning yuqorigi menyusidagi **Sayt-satellitlar** ishoratini bosasiz. Bunda quyidagi sahifa ochiladi.



Bunda yangi yaratiladigan saytlar qayerda joylashtirilishi va tizimga aloqador ma'lumotlar beriladi hamda sayt-satellitlarni yaratish qoidalari bilan tanishib chiqish talab qilinadi. Sahifaning pastidagi **sayt-satellitlarni yaratish qoidalari** ishoratini bosasiz. Bunda Ziyonetda – sayt - satellitlarni yaratish va ulardan foydalanish qoidalari ochiladi. Ushbu qoidalar quyida keltirilgan.

Ziyonetda – sayt - satellitlarni yaratish va ulardan foydalanish qoidalari

Mazkur qoidalar Ziyonet axborot resurs portalida sayt-satellitlarni yaratish va ulardan foydalanish shartlari tavsifidir. Ziyonet sayt-satellitining egasiga aylangan foydalanuvchi quyida ko'rsatilgan Qoidalarning barcha shartlarini qabul qilib, ularga amal qilish majburiyatini oladi:

1. Ziyonet portalining sayt-satellitlari internet tarmog'idagi saytlar bilan ishlash va ularni boshqarish bilan tanishishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Sayt-satellitlarning faoliyati internet tarmog'idagi axborot-ta'limiy resurslar bilan ishlashga o'rgatish hamda o'qituvchilar, o'quvchilar va barcha foydalanuvchilarning ushbu yo'nalishdagi ilm darajasini oshirishga qaratilgan. Sayt-satellitlar, sozlangan va ishlashga tayyorlangan Wordpress (CMS) kontentni boshqarish tizimida yaratiladi. Barcha sayt-satellitlar 3-darajali «zn.uz» domenida joylashgan;

2. ZiyONET portalida sayt olish huquqini faqatgina ID.UZ avtorizasiya tizimida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchigina qo'lga kiritishi mumkin.
3. Sayt-satellit ochishga talabnoma berilgandan so'ng, 3 kun ichida foydalanuvchining elektron pochta manziliga tasdiq yoki rad javobi haqidagi bildirishnoma yuboriladi.
4. Sayt mazmuni – kontenti (maqola matnlari, rasmlar, video va –sayt-satellitda chiqarilgan boshqa resurslar) – uchun javobgarlik sayt egasining zimmasidadir.
5. Barcha sayt-satellitlarning yangiliklar kiritilishi holati goh-goh tekshirib turiladi. Har bir sayt-satellitga oxirgi 3oy mobaynida kamida 5 ta maqola joylashtirilgan bo'lishi shart.
6. Sayt-satellitlar o'zga saytlarni reklama qiluvchi va ommalashtiruvchi axborot maydonchasi hisoblanmaydi.
7. ZiyONET portalidagi sayt-satellitlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va umumiy ahloq normalariga zid bo'lgan, qolaversa, tajovuzkorlik, bosqinchilik, urush, irqchilik targ'ib etilgan materiallardan holi bo'lishi shart.
8. Ushbu qoidalarga rioya qilinmagan holda, foydalanuvchining ro'yxatdan o'tish jarayonida ko'rsatib o'tilgan pochta manziliga kelgusi ikki hafta mobaynida yangilik kiritish kerakligi ko'rsatilgan ogohlantirish xati yuboriladi. Ogohlantirish yuborilgandan so'ng ikki hafta o'tgach foydalanuvchi saytiga yangi ma'lumot kiritmasa, sayt ma'muriyati saytni yopib qo'yish, keyinchalik esa saytni o'chirish huquqiga ega.
9. ZiyONET portalining ma'muriyati sayt-satellitlarning ishlash jarayonida texnik nosozliklar yuz berganida dasturiy ta'minotga oid texnik yordam ko'rsatadilar.
10. ZiyONET portalining ma'muriyati sayt ishlab chiqarish, uni to'ldirish va rivojlantirish ishlarini amalga oshirmaydi.


Qoidalarining pastki qismida yangi yaratiladigan saytni ro'yxatdan o'tkazish shakli ko'rsatiladi. Bu sahifaning barcha maydonlariga to siz **Men qoidalar bilan tanishib chiqdim va qoida shartlariga roziman** bayroqchasini belgilamaguningizcha hech nima kirita olmaysiz. Bayroqcha belgilanganidan keyin uning pastidagi maydonlar ochiladi.

Sayt nomi degan maydonga ushbu saytni nima deb atamoqchi bo'lsangiz, shuni kiritasiz. Masalan, maktab sayti deb kiritishingiz mumkin. Lekin bu nom iloji boricha aniqroq bo'lishi kerak. Unga maktabingizning soni, qayerda joylashgani kabi ma'lumotlarni qo'shsangiz yaxshi bo'ladi.

Sayt domeni maydoniga saytingiz uchun olmoqchi bo'lgan domeningiz nomi kiritiladi. Bu maydonga kiritiladigan nom iloji boricha qisqaroq va aniq bo'lgani ma'qul. Iloji boricha maktabning nomi yoki soni ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Quyida keltirilgan misolda domen nomi sifatida profschool ko'rsatilgan. Bu Farg'ona shahridagi 5 maktab sayti ekanligiga ishoradir. Bu nom misol tariqasida keltirilgan. Domen nomini ko'rsatishda uning yuqori domeni zn.uz ni ko'rsatish kerak emas.

Tavsif maydoniga ushbu saytdan nima maqsadda foydalanishi haqida yozish kerak bo'ladi.

Bo'lim maydonida ushbu sayt qaysi bo'limda joylashishi ko'rsatiladi.




The screenshot shows a web browser window with the URL blogs.ziynet.uz/uz/blog/create. The page is in Russian and contains a form for creating a new site. The form fields are:

- Sayt nomi ***: profschool.zn.uz
- Sayt domeni ***: profschool (with a dropdown menu showing 'zn.uz')
- Tavsif ***: Men Mustafuqulova Maftuna Farg'ona shahar 5-umumta'lim maktabining web sahifasini wordpress dasturida yaratib, uni foydali ma'lumotlar bilan to'ldirishmoqchiman. Web sahifani maktab hayoti, o'qituvchilar, o'quvchilar uchun qiziqarli ma'lumotlar to'plami bilan boyitib, uni imkoniyatlarini kengaytirmoqchiman.
- Bo'lim ***: - Maktablar

There is a checkbox for 'Men qoidalar bilan tanishib chiqdim va qoida shartlariga roziman' which is checked. A blue button labeled 'Saytni yaratish' is at the bottom of the form.

Bunda rasmda ko'rsatilgandek Maktablar bo'limini tanlash kerak bo'ladi.

Barcha ma`lumotlar kiritilganidan keyin **Saytni yaratish** tugmasi bosiladi. Bunda murojaatingiz ko`rib chiqishga yuborilgani haqida ma`lumot ekranga chiqariladi.



Shundan keyin sizning murojaatingiz bir kundan uch kungacha bo`lgan muddatda ko`rib chiqiladi va ruxsat beriladi.


Ruxsat berilganidan keyin siz brauzeringizning adres maydonida o`z saytingiz nomini `www.***.zn.uz` tarzida yozasiz va **Enter** tugmasini bosasiz.

Maktab saytni sozlash va unga ma`lumotlar kiritish

Ruxsat berilganligi haqida pochtangizga xabar kelganidan keyin siz brauzeringizning adres maydonida o`z saytingiz nomini yozasiz va Enter tugmasini bosasiz. Bunda maktabingiz saytining bosh sahifasi ochiladi. Unda faqat saytning nomi aks etadi. Chunki boshqa ma`lumotlar hali kiritilmagan.

Saytni ma`lumotlar bilan to`ldirish uchun administratorlik qismiga o`tish kerak bo`ladi. Buning uchun **Meta** bo`limidagi **Вход** ishoratini bosishingiz kerak bo`ladi. Bunda siz avtomatik ravishda `id.uz`ning kirish sahifasiga o`tasiz.

Bunda siz `id.uz`dagi loqiningizni ko`rsatishingiz va **Войти** tugmasini bosishingiz kerak.



Shunda sizdan tizimdagi parolingizni kiritish soʻraladi. Bu oynada siz oʻz parolingizni koʻrsatishingiz va **Войти** tugmasini bosishingiz kerak. Agar siz saytga doimiy ravishda oʻz komyuteringizdan kirsangiz va har safar login va parolingizni kiritib oʻtirishni istamasangiz, **Войти** tugmasini bosishingizdan oldin **Запомнить меня** bayrogʻini belgilashingiz va bu bilan brauzeringiz sizning login va parolingizni aslab qolishi kerakligini koʻrsatishingiz mumkin. Bunda keyingi safar saytingizning administratorlik qismiga kirishingizda sizdan login va parol soʻralmaydi. Bu faqat ushbu amalni bajargan kompyuteringizdagina amalga oshadi. Boshqa kompyuterda esa login va parolingizni koʻrsatishingiz shart. Bu sizning saytingizga id.uzdagi loginingiz bilan birinchi marta kirayotganligingiz uchun identifikatsiyani tasdiqlash oynasi ochiladi. Bu sahifaning pastki qismida


Подтверждение идентификации

Сайт profischool.zn.uz запросил идентификацию по OpenID URL marfa5.id.uz.
Данный сайт также запросил информацию о Вас. Поля, отмеченные * обязательные.


* Фамилия:	Toshmatova
* Имя:	Maftuna
Отчество:	Shavkatjon qizi
Временная зона:	не заполнено
* Никнейм:	MARFAS
* Полное имя:	Toshmatova Maftuna Shavkatjon qizi
* Основной почтовый ящик:	marfa5@umail.uz
Дата рождения:	не заполнено
Пол:	не заполнено
Язык:	не заполнено
Адрес проживания:	не заполнено
Страна:	не заполнено
Телефон:	998973350719
Регион:	11
Район:	169
Место жительства:	Vodil qishlogʻi
Номер паспорта:	AA2248435
ПИНФЛ:	не заполнено
* UserID:	001124144
Статус:	anon

Навсегда


Разрешить va **Запретить** tugmalari joylashgan. Ular yordamida siz identifikatsiyaga ruxsat berishingiz yoki bermasligingiz ham mumkin. Bu tugmalarning ustidagi **Навсегда** bayrog`ini belgilashingiz natijasida keying safar saytga kirishda ushbu oyna boshqa ochilmaydi.



Yuqoridagi rasmda maktabingiz saytining boshqarish paneli ko`rsatilgan. U chap tomonda joylashgan menyuni va o`ng tomonda joylashgan va ekranning katta qismini egallagan paneldan iborat. Rasmda ko`rsatilgan **Customize Your Site** tugmasi yordamida siz saytingiz sozlovlarini o`zgartirishingiz mumkin bo`ladi. Masalan:




Bunda siz birinchi sozlashingiz kerak bo`lgan narsa – bu **Site Title & Tagline** bo`limidir.




Bu bo`limda siz saytning tepa qismida ko`rinib turadigan uning nomini va uning ostida turadigan qisqa tavsifini o`zgartirishingiz mumkin. Ushbu ko`rayotgan holatimizda sayt nomini o`zgartirish kerak emas. Lekin qisqa tavsifda avtomatik ravishda **Еще один Сайты-сателлиты 2.0** yozuvini o`zgartirish kerak bo`ladi. Bu yerga siz o`zingiz istagan biror ibora yoki ta`limga taaluqli maqolni ham kiritishingiz mumkin. Masalan, Beshikdan qabrgacha ilm izla iborasi maktab sayti uchun ham mos keladi.

Bundan tashqari siz saytning ranglarini tanlashingiz, uning tepa qismidagi rasmni, fonda ko`rinib turadigan rasmni yuklashingiz, menyu qismida ko`rinib turadigan vidjetlarni sozlashingiz yoki bosh sahifada qaysi sahifa materiallari ko`rsatilishini ko`rsatishingiz mumkin bo`ladi.






Static Front Page bo`limida bosh sahifada nimani ko`rsatish kerakligi ko`rsatiladi. Bu yerda siz **A static page** bandini tanlashingiz va keyin ochiladigan menyudan istagan bir sahifani ko`rsatishingiz yoki **Ваши последние записи** bandini tanlashingiz mumkin. Bunda sizning kiritgan oxirgi yangiliklaringiz bosh sahifaga chiqariladi.

Yoki bularni qo`lda sozlamasdan, WordPressning oldindan sozlangan istagan bir shablonini tanlashingiz ham mumkin. Buning uchun ushbu sahifa yopiladi va siz administratorlik sahifasiga qaytishingiz kerak bo`ladi.



Endi siz menyuning **Внешний вид** bo`limidan **Темы** menyusini tanlaysiz. Bunda saytga yuklangan va siz tanlashingiz mumkin bo`lgan WordPress shablonlari sahifasi ochib beriladi.



Istalgan bir shablan tasvirining ustiga sichqoncha ko`rsatkichini olib borsangiz, yuqoridagi rasmda ko`rsatilgandek ikkita **Активировать** va **Live**

P+review tugmalari aktivlashadi. **Активировать** tugmasini bosish bilan ushbu shablon aktivlashadi va sayt uning asosida ishga tushadi yoki siz **Live Preview** tugmasini bosib, saytingiz qanday ko`rinishda bo`lishini ko`rishingiz va o`zingizga kerakli sozlovlarni quyidagi rasmlarda ko`rsatilgandek amalga oshirishingiz mumkin.

Siz Profischool.zn.uz ni moslayapsiz.

Joriy shablon Twenty Ten

Site aniqlovchisi >

Ranglar >

Header rasmi >

Fon rasmi >

Menyular >

Vidjetlar >

Statik Bosh Sahifa >

Свернуть

Profischool.zn.uz Farg'ona shahar 5-umumta'lim maktabi web sayti

ProfiSchool.Zn.Uz
Farg'ona shahar 5-maktab web sayti

Bosh sahifa Davlat ramzlari Elektron kutubxona Meyoriy hujjatlar O'qituvchilar uchun



“MEN O'QITUVCHIMAN”
marfa5 tomonidan [May 13, 2017](#) da chop etilgan
04.04.2016 [Yangiliklar](#) [No comments](#)
“MEN O'QITUVCHIMAN”
“TALIMNI TARBIYADAN, TARBIYANI
ESA TA'LIMDAN AJRATIB BO'LMAYDI – BU
SHARQONA QARASH, SHARQONA HAYOT
FALSAFASI.” I.A. KARIMOV
Prezidentimiz I.Karimov «Biz

Saytdan qidirish

Taqqim Iyun 2017

M	T	W	T	F	S	S
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30		

May



Hamma sozlovlarni amalga oshirib bo'lganingizdan keyin sahifaning yuqorigi qismidagi **Save & Activate** tugmasini bosasiz. Shundan keyin bizning

hozirgina amalga oshirgan o'zgartirishlarimizni brauzerda quyidagicha ko'rishingiz mumkin bo'ladi.



Shundan keyingi qiladigan ishimiz – **Настройки** bo'limi sozlovlarini amalga oshirishdir. Bu yerda siz oldin ko'rganimiz o'zgartirishlarni ham bimalol amalga oshitra olasiz. Bu bo'limda bir qancha sozlovlar mavjud. Lekin ularning ichida asosiysi **Общие настройки** dir. Bu yerda saytning nomi, uning qisqa tavsifi, e-mailingiz, vaqt mintaqasi, sana va vaqt ko'rsatkichlari, haftaning birinchi kuni va sat tilini tanlashingiz mumkin.

Общие настройки

Настройки сохранены.

Заголовок сайта

Краткое описание
Объясните в нескольких словах о чем этот сайт.

E-mail Address
Этот адрес используется для административных целей. Если вы его измените, вам будет отправлено электронное письмо на ваш новый адрес для подтверждения. **Новый адрес не будет активирован, пока вы его не подтвердите.**

Часовой пояс UTC время соответствует **13.11.2014 11:42:08**
Выберите город в том же часовом поясе, что и ваш.

Формат даты
 13 Ноябрь 2014
 2014-11-13
 11/13/2014
 13/11/2014
 Свой формат: 13 Ноябрь 2014

Формат времени
 11:42
 Свой формат: 11:42
[Документация по форматированию даты](#). Нажмите «Сохранить изменения» чтобы обновить пример.

Первый день недели

Site Language


Thank you for creating with [WordPress](#). Версия 4.0

Bu ko`rsatkichlar ichida vaqt mintaqasini tanlashda UTC+5 ni tanlashingiz kerak bo`ladi. Sayt tilini tanlash esa sizning o`zingizga havola. Lekin shuni aytish kerakki WordPressning juda ko`plagan atamaları o`zbekchaga to`liq tarjima qilinmagan va o`zbek tilini tanlasangiz, saytning asosiy qismida ham administratorlik qismida ham o`zbekcha va inglizcha atamalar aralashib ketadi. Rus tilini tanlasangiz, faqat rus tilidagi atamalar chiqadi va sayt menyusi tushunarliroq bo`ladi.


Sahifalar yaratish

Asosiy sozlovlarni amalga oshirib bo'lganingizdan keyin saytni materiallar bilan boyitishni boshlashingiz mumkin bo'ladi. Shu o'rinda saytda e'lon qilishingiz mumkin bo'lgan materiallarning turi haqida to'xtalib o'tsak. Bunda siz asosan ikki turdagi ma'lumotlarni joylashtirishingiz mumkin: statik sahifalar va dinamik sahifalar.


Avvalo statik sahifalarni ko'rib chiqsak. Bu bir marta e'lon qilinadigan va keyinchalik o'zgarmaydigan yoki deyarli o'zgarmaydigan asosiy ma'lumotlardir. Bunday ma'lumotlarga maktab haqidagi umumiy ma'lumotlar, rahbariyat va uning qabul kunlari haqidagi, erishilgan natijalar va yutuqlar, maktab pasporti va shunga o'xshagan uzoq vat davomida o'zgarmaydigan umumiy ma'lumotlarni kiritish mumkin. Bunday sahifani qo'shish uchun **Страницы** bo'limidan **Добавить новую** menyusini tanlaysiz.



Bunda quyidagi sahifa ochiladi.




Bu sahifada oldin yangi yaratayotgan sahifaning mavzusini kiritasiz, keyin e`lon qilinishi kerak bo`lgan materialni yozasiz. Materialni web formada yozib o`tirmasdan oldindan tayyorlab qo`yilgan fayldan ko`chirib tashlashingiz ham mumkin. Material tayyor bo`lganidan keyin o`ng tomondagi **Опубликовать** tugmasini bosib, uni omma e`tiboriga havola qilishingiz mumkin.




Misol tariqasida maktab o`qituvchilarining dars ishlanmalarini e`lon qilish sahifasini yaratamiz. Buning uchun sahifa mavzusini kiritamiz va birinchi e`lon qilinadigan dars ishlanmasining mavzusini yozamiz. Endi bu yozuvga ushbu dars ishlanmasi fayliga ishoratni qo`shish kerak bo`ladi. Buning uchun oldin kerakli faylni saytga yuklash kerak. Buning uchun **Добавить медиафайл** tugmasini bosamiz.

Bunda quyidagi sahifa ochiladi




Ushbu sahifaning markazidagi **Выберите файл** tugmasini bosasiz va sizga faylni tanlash darchasi ochib beriladi.



Ushbu darchada kompyuteringizning istagan joyida joylashgan faylni tanlashingiz mumkin. Tanlaydigan faylingizning hajmi 21 megabaytdan ko'p bo'lmasligi kerak. Aks holda faylni yuklashda xatoliklar yuzaga keladi.


Kerakli faylni tanlaganingizdan keyin **Открыть** tugmasini bosasiz. Shunda tanlagan faylingiz yuklanadi va **Медиа библиотека** vrladkasi ochiladi.




Bunda avtomatik ravishda oxirgi yuklangan fayl belgilangan bo`ladi. Ushbu sahifada siz ikkita ishni amalga oshirishingiz mumkin: 1) tanlangan faylni yaratayotgan sahifangizning kursor turgan joyiga joylashtirish, 2) faylning manzilini aniqlash va sahifadagi biror so`zga ishorat qo`yish.

Agar siz sahifaga rasm joylashtirmoqchi bo`lsangiz, faylni tanlaysiz va sahifaning pastki o`ng burchagidagi **Insert into page** tugmasini bosasiz.


Lekin bizga hozirgi holatimizda faylning faqat ishoratini berish kerakligi tufayli sahifaning o`ng tomonidagi formadan **URL** yozuvi yonidagi maydondan faylning ishoratini ko`chirib olasiz va bu sahifani yopasiz. Sahifani yopish uchun yuqori o`ng burchakdagi **x** belgini boshish kerak. Bunda siz yana yangi sahifa qo`shish oynasiga o`tasiz.



Endi dars ishlanmasining nomini sichqoncha ko`rsatkichi bilan belgilab olasiz va **Вставить и редактировать ссылку** tugmasini bosasiz. Bunda **Вставить/редактировать ссылку** darchasi ochiladi.




Bu darchaning **URL** maydonida **Медиа библиотека** dan olgan ishoratingizni qo`yasiz va **Добавить ссылку** tugmasini bosasiz. Bunda siz belgilagan mavzu ko`k rangga bo`yaladi va **Опубликовать** tugmasini bosib, ushbu mavzuni e`lon qilasiz.




Dinamik sahifalar

Dinamik sahifalar blog tizimining asosini tashkil qiladi va biror bir rubrika ostida e`lon qilinadigan yangiliklar ketma-ketligidan iboratdir. Bunda har bitta keyingi e`lon qilingan material sahifaning yuqorisidan o`rin oladi va oldingi materialni pastga tushiradi.

Bunday sahifalarni e`lon qilishdan oldin ularni e`lon qilish mumkin bo`lgan rubrikalarni sozlab olish kerak. Buning uchun **Записи** bo`limidan **Рубрики** menyusini tanlaymiz. Shunda yangi rubrika qo`shish va mavjud rubrikalar ro`yxati chiqadi. WordPressda avtomatik ravishda bittagina rubrika yaratiladi va u **Новости** deb ataladi.



Ushbu rubrika nomi ustiga sichqoncha ko`rsatkichini olib borsangiz, quyidagicha menyu ochiladi.



Bu menyudan Редактировать ni tanlaysiz va yngi darchada rubrika nomini **Yangiliklar** deb o`zgartirasiz. Uning yorlig`ini ham **yangiliklar** tarzida

o`zgartirish kerak. Shunga e`tirob berish kerakki, yorliq faqat kichik harflar bilan yoziladi. Shundan keyin **Обновить** tugmasi bosiladi rubrika nomi o`zgartiriladi.

Настройки экрана ▾

Редактировать рубрику

Имя
Имя – это то, как метка будет показана на вашем сайте.

Ярлык

используются только символы в нижнем регистре, цифры и дефис.

Родитель
Рубрики, в отличие от меток, могут иметь иерархию. Например вы можете иметь рубрику «Джаз», у которой есть дочерние рубрики «Вебор» и «Big Band». Все опционально.

Описание
Описание не используется по умолчанию, но некоторые темы могут показывать его.

Yangi rubrika yaratish uchun esa sahifaning o`rta qismidagi **Добавить** новую рубрику bo`lvidan foydalaniladi. Bu yerda oldingi holatdagidak rubrika nomi va yorlig`ini ko`rsatish talab qilinadi. Agar yangi yaratayotgan rubrikangiz boshqa biror rubrikaning ichidagi subrubrika bo`lsa, **Родитель** bo`limidan yuqori darajali rubrikani ko`rsatishingiz kerak bo`ladi. Bizning holatimizda bunday bo`lmagani uchun rubrikaning nomini va yorlig`ini **Tadbirlar** deb belgilaymiz va **Добавить новую рубрику** tugmasini bosamiz.

WordPress dashboard interface for managing categories. The page title is "Рубрики" (Categories). A notification at the top says "Category updated." The left sidebar shows navigation options like "Панель", "Записи", "Рубрики", "Медиафайлы", "Страницы", "Комментарии", "Внешний вид", "Плагины", "Пользователи", "Инструменты", "Настройки", and "Collapse menu".

The main content area is titled "Добавить новую рубрику" (Add new category). It contains several input fields and a dropdown menu:

- Имя (Name):** Input field containing "Tadbirlar". A red arrow points to this field. Below it, a note says: "Имя – это то, как метка будет показана на вашем сайте." (Name is how the tag will be displayed on your site.)
- Ярлык (Slug):** Input field containing "tadbirlar". A red arrow points to this field. Below it, a note says: "Ярлык (короткая ссылка) – это дружественная версия имени URL. Как правило, используются только символы в нижнем регистре, цифры и дефис." (Slug (short link) is a friendly version of the URL name. Usually, only lowercase letters, numbers, and hyphens are used.)
- Родитель (Parent):** Dropdown menu set to "Нет" (None). Below it, a note says: "Рубрики, в отличие от меток, могут иметь иерархию. Например вы можете иметь рубрику «Джаз», у которой есть дочерние рубрики «Вебор» и «Big Bands». Все опционально." (Categories, unlike tags, can have a hierarchy. For example, you can have a category «Jazz», which has sub-categories «Вебор» and «Big Bands». All optional.)
- Описание (Description):** A large empty text area. Below it, a note says: "Описание не используется по умолчанию, но некоторые темы могут показывать его." (Description is not used by default, but some themes may display it.)

At the bottom of the form, there is a blue button labeled "Добавить новую рубрику" (Add new category). A red arrow points to this button.

On the right side, there are two tables showing existing categories:

Name	Описание	Ярлык	Count
Yangiliklar		yangiliklar	1

Below the tables, there is a warning message: "Внимание: Удаляя рубрику, вы не удаляете записи этой рубрики. Записи будут автоматически перемещены в рубрику **Yangiliklar**. Рубрики могут быть выборочно преобразованы в метки с помощью [конвертера](#)." (Warning: Deleting a category does not delete the posts of this category. Posts will be automatically moved to the category **Yangiliklar**. Categories can be optionally converted to tags using the [converter](#).)


At the bottom right, it says "Версия 4.0" (Version 4.0).

Endi bizda ikkita: Yangiliklar va Tadbirlar rubrikalari mavjud va ular bo'lyicha materiallarni e'lon qila boshlashimiz mumkin.

<input type="checkbox"/>	Name	Описание	Ярлык	Count
<input type="checkbox"/>	Tadbirlar		tadbirlar	0
<input type="checkbox"/>	Yangiliklar		yangiliklar	1
<input type="checkbox"/>	Name	Описание	Ярлык	Count


Записи bo`limi ustida sichqoncha tugmasini bossangiz, quyidagi sahifa ochiladi. Unda mavjud yozuvlar ro`yxati ko`rinib turadi.

WordPress admin interface showing the 'Записи' (Posts) section. The page title is 'Записи < Urganch shaxar 12'. The URL is 'urganch12.zn.uz/wp-admin/edit.php'. The user is logged in as 'Howdy, urganch12'. The main content area shows a list of posts with columns for 'Заголовок', 'Автор', 'Рубрики', 'Tags', and 'Дата'. One post is visible: 'Привет мир!' by 'urganch12' in the 'Yangiliklar' category, published 6 hours ago. The interface includes a sidebar with navigation options like 'Панель', 'Записи', 'All Posts', 'Медиафайлы', 'Страницы', 'Комментарии', 'Внешний вид', 'Плагины', 'Пользователи', 'Инструменты', and 'Настройки'.




WordPressning avtomatik ravishda chiqaradigan birinchi yozuvi **Привет мир!** deb nomlanadi. Bizning saytimizda bunday yozuvning keragi bo`lmagani uchun uni o`chirib tashlashimiz yoki o`zimizga kerakli boshqa biror mavzuga o`zgartirishimiz mumkin. Buning uchun yozuv nomi ustiga sichqoncha ko`rsatkichini olib boramiz. Shunda tahrirlash meysusi ochib beriladi. Bu menyudan **Редактировать** buyrug`i tanlanadi.


Bunda ochilgan sahifada mavjud yozuv mavzusi va mazmunini o`zingiz istaganingizcha o`zgartirishingiz? Uning qaysi rubrikaga mansub ekanligini ko`rsatishingiz va **Обновить** tugmasini bosish bilan batamom o`zgartirishingiz mumkin.




Buni qanday amalga oshirish quyidagi rasmda ko`rsatilgan.



Записи bo`limining **Добавить новую** menyusini tanlasangiz yuqoridagiga o`xshash, faqat to`ldirilmagan sahifa ochiladi. Bunda siz yangi yozuvning mavzusi va materialini qo`shishingiz, rubrikasini belgilashingiz va **Опубликовать** tugmasini bosib, e`lon qilishingiz mumkin.



Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda saytning yakuniy ko`rinishi masalan quyidagicha bo`lishi mumkin.



Boshqa sahifalarni yaratish ham huddi shu usul bilan amalga oshiriladi.

XULOSA

Internet texnologiyalari qo'llanilayotgan sohalarni bugun har yerda, har qadamda uchratish mumkin. Elektron magazin, elektron kassa, elektron ma'lumotnomalar, elektron e'lonlar doskasi va hokazolar kundalik turmushimizga kirib keldi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda o'quvchi-yoshlarni internet tizimida faol ishlashga o'rgatish, ularda o'z faoliyat sohasida internet manbalaridan foydalana olish ko'nikma va malakalarini hosil qilish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Informatika va uni o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy va amaliy darslarni tashkil qilish jarayonida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar, portallar, ta'lim muassasalarining elektron kutubxonalari resurslaridan foydalanish o'rganilayotgan mavzuning yana keng qamrovli tushinib olishiga bilim ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Bunday sayt va portallardan darslarda foydalanish uchun ishlarni quyidagi bosqichlarda tashkil qilish tavsiya etiladi:

1. Ta'lim muassasasi uchun yaratilgan saytlarning umumiy tuzilishi, ma'lumotlarning ierarxik xaritasi bilan avvaldan tanish bo'lish.
2. Talabalarga internet tizimida "harakatlanish"ning oddiy qoidalarini tushuntirish, internetga bog'lanish usullari xaqidagi amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.
3. Informatika nazariy va amaliy darslarini o'tish jarayonida multimediya texnologiyalari (proektorlar)dan foydalanilgan holda ta'lim muassasalari uchun yaratilgan saytlarni o'quvchilar o'rtasida muhokamasini tashkil qilish.
4. Topshiriqlar va uy vazifalari berishda ta'lim muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish bo'yicha alohida topshiriq va ko'rsatmalarni ishlab chiqish hamda nazariy va amaliy darslarda keng foydalanish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin, ta'lim muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish darslarning mazmunli tashkil etilishi va talabalarda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish hamda mustahkam bilim olishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2005, 3-iyun.
2. “2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, “Internet”ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta‘minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Xalq so‘zi”. 24 may, 2001 y.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni. “Xalq so‘zi”. 11 fevral, 2004 y.
4. «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 iyuldagi–117-son qarori.
5. «Ta‘lim haqida» konun // Xalq ta‘limi. 1997. №5. S.4-16. 6. Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi // Xalq ta‘limi. 1998. №1. S.5-41.
7. Abduqodirov A. A. Teoriya i praktika intensivatsii podgotovki uchiteley fiziko-matematicheskix dissiplin. Aspekt ispolzovaniya kompyuternyx sredstv v uchebno-vospitatelnom protsesse: Avtoref...dokt.ped.nauk. - T., 1990. – 39 s.
8. Abduqodirov A. A.. va boshk.. Axborot texnologiyasi fani buyicha kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv dasturi. - Toshkent: 2000.- 8 bet.
9. Abduqodirov A. A.. va boshk. Axborot texnologiyalari.: Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun darslik. / 55
Abdukodirov A., Xaitov A., SHodiev R. - Toshkent: O‘zbekiston, 2001.-250 bet.
10. Aripov M. va boshq. Informatika: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - Toshkent: 2002. – 203 bet.
11. Axmedov A., Tayloqov N. Informatika: Akademik litsey va kasb–hunar kollejlari uchun darslik. - Toshkent: O‘zbekiston, 2001. - 272 bet.
12. Axrorov SH. S. Pedagogicheskie osnovy formirovaniya informatsionnoy i uchebno-texnicheskoy kultury budущix uchiteley v sisteme pedagogicheskogo obrazovaniya: Diss. ... dok.ped.nauk. - T., 1994. – 301 s.
13. Boqiev R. Kompyuterlashtirilgan ukuv jarayonining inson-mashina sistemasi sifatidagi ayrim muammolari // Pedagogik ta‘lim. 2000. №1. 93-94 betlar.
14. Boqiev R. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari informatika ta‘limi haqida // Litsey va akademik litseylarda ta‘lim tizimini takomillashtirish. Ilmiy uslubiy maqolalar to‘plami. -Toshkent, 2000. 2 – 4 betlar.

15. Geyn A. G. Izucheniye informatsionnogo modelirovaniya kak sredstvo realizatsii mejpredmetnykh svyazey informatiki s dissiplinami estestvennonauchnogo sikla: Avtoref. ... kand.ped.nauk. - M., 2000
16. Xayitov A. G. Sistema didakticheskix uprajneniy po OIVT dlya 8-9 klassov: Avtoref. dis. kand. ped. nauk. - T.. 1996.
17. Esonbaeva D. M. Netraditsionnye uroki po OIVT i metodika ix profedeniya: Avtoref...k.p.n.-T.: TGPU, 2002.
18. Yuldashev U. YU, Boqiev R. R. i dr. Informatika ta'limi konsepsiyasi haqida// Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariida 56 fizika, matematika va informatika fanlarini o'qitishni taqomillashtirish mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent
19. Yuldashev U. YU, Boqiev R. R., Zakirova F. M. Informatika.: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - Toshkent: ϕ . ϕ ulom nomidagi nashriet. 2002.
20. Yuldashev U. YU, Zakirova F. M. Metodika prepodavaniya informatiki. Uch. dlya studentov pedagogicheskix VUZov. – T.: ZAS QALAM. 2005.
21. Yuldashev U. YU, Zakirova F. M. i dr. Zadaniya dlya laboratornyx rabot po kursu informatika. - T.: TGPU, 2002.
22. Yuldashev U. YU, Zakirova F. M. i dr. Microsoft Access 97. - T.: TGPU, 2002.
23. Zokirova T.A., Masharipov A.K., Musaeva M.A., Ibrohimov E.U. Web dasturlash. O'quv qo'llanma. Toshkent- 2006.
24. Glushakov S.V. i dr. «Rabota v seti Internet»: Uchebnyy kurs. M.: AST,2001g.
25. Zakirova T.A., Xodieva R.M. Osnovy HTML. Uchebnoe posobie. TGEU. Tashkent
26. Muhammadieva F. «Intranetning ta'limdagi didaktik imkoniyatlari». Magistrlik dissertatsiyasi TDPU, 2006 yil.
27. «Akademik litsey va kasb xunar kollejlariida fizika, matematika va informatika fanlarini o'qitishni takomillashtirish istiqbollari» Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari.Toshkent, 2010 yil.
28. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. -T.:O'zbekiston. 1992. – 57
29. <http://www.ziyonet.uz> – O'zbekiston Respublikasi axborot-ta'lim tarmog'i.
30. <http://tanlov.uzedu.uz> –
31. www.search.re.uz – O'zbekiston axborotlarni izlab topish tizimi.
32. www.ictcouncil.gov.uz - Kompyuterlashtirishni rivojlantirish bo'yicha Vazirlar Maxkamasi muvofiqlashtiruvchi Kengashining sayti.
33. www.ecsoman.edu.ru – Rossiya Federatsiyasi Oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy komplekslar.